

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

**MILLIY G‘OYA, MA‘NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA‘LIMI
KAFEDRASI**

Olimova Kamola Orif qizining

**“ 5141500-Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi” ta‘lim
yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun**

***“Ommaviy jamiyatda moddiy va ma‘naviy madaniyat dealektikasi”
mavzusida yozgan***

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: _____ dots.A.Erkayev

“Himoyaga tavsiya etildi”

Tarix fakulteti dekani

_____ t.f.n.A.Hasanov

“ _____ ” _____ 2014 yil

Qarshi 2014-yil

MAVZU: OMMAVIY JAMIYATDA MODDIY VA MA'NAVIY MADANIYAT DEALEKTIKASI

Kirish.....	3
--------------------	----------

I.BOB. OMMAVIY JAMIYATDA MADANIYATNING OMMALASHUVI

1.1. Ommaviy jamiyat va uning shakllanishining asosiy sabablari.....	7
1.2. Ommaviy madaniyat – ommaviy jamiyatning immanentidir.....	19

II.BOB. OMMAVIY JAMIYATDA MODDIY VA MA'NAVIY MADANIYATLARNING O'ZARO TA'SIRI

2.1. Moddiy va ma'naviy madaniyatlarning o'zaro aloqalari.....	33
---	-----------

2.2. Axborot texnologiyalari va boshqa zamonaviy texnologiyalarining moddiy va ma'naviy madaniyatga ta'siri.....	40
---	-----------

Xulosa.....	49
--------------------	-----------

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati.....	53
---	-----------

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Jamiyatni industriallashtirish boshlanib borib, kapitalizm rivojlangandan keyin jamiyatning tubdan ijtimoiy tuzilmasi ham keskin o'zgargan. Ilgarigi jamiyatda har xil ijtimoiy toifalar mavjud bo'lib, ularning haq-huquqlari, imtiyozlari, burchlari qonun orqali mustahkamlab qo'yilgan edi.

Quyi tabaqalar davlat boshqaruvida qatnasha olmas edi va aksincha yuqori tabaqalar qator imtiyozlarga ega bo'lib, og'ir qo'l mehnati bilan shug'ullanmas edi. Ularga turli imtiyozlar berilgan bo'lib, ko'plab majburiyatlar qo'llanilmas edi.

Kapitalizm qaror topgandan keyin tabaqaviy imtiyozlarni bekor qildi. Hammani qonun oldida teng deb e'lon qildi. Bu asta-sekin jamiyatda tabaqalar o'rtasidagi farqlarning yo'qolishiga olib keldi. Kapitalizm rivojining keyingi bosqichlarida jamiyatning turli xil hunarmandlarga bo'linishi ham barham topdi. Endi hunarmandlar o'rniga zavod va fabrika ishchi-mutaxassisligi paydo bo'ldi. Jamiyat ommalashdi. Ya'ni unda tabaqalar va kasb-hunarlar bo'yicha farq qiladigan hunarmandlar yo'qolib yagona ommaga aylandi.

Industrial jamiyat rivojining keyingi bosqichlarida ommaviy jamiyat yanada mustahkamlandi. Uning o'ziga xos standartlashgan turmush tarzi moddiy va ma'naviy buyumlarni vujudga keltirdi. G'arb olimlari mazkur moddiy va ma'naviy mahsulotlarni ommaviy jamiyatga xos ommaviy jamiyatning ichki xususiyatlaridan kelib chiqqan madaniyat deb atay boshladilar va bu madaniyatga ommaviy madaniyat degan nom berdilar.

Ommaviy madaniyatning ommaviy jamiyat bilan chambarchas bog'liqligi masalasi ularni bir-birini taqazo etib rivojlanishi, o'ziga xos xususiyatlari va boshqa ko'plab masalalar o'zbek tadqiqotchilarining nazaridan chetda qolmoqda.

Ommaviy jamiyat va ommaviy madaniyat o'rganilganda ham ular o'zaro bog'liqlikda emas, alohida-alohida tadqiq etilmoqda. Natijada ommaviy madaniyat ba'zi hollarda bir tomonlama talqin etilayapti. Ya'ni asosan salbiy baholanmoqda. Madaniyat rivojlanishida g'arazli maqsadlarni ko'zlagan siyosiy va iqtisodiy guruhlarining boyish, o'zga xalqlarni bo'ysundirishga qaratilgan

faoliyati mahsuloti sifatida baholanmoqda. Masalaning ushbu jihatini ham borligini e'tirof etgan holda madaniyatning hozirgi zamon sivilizatsiyasini u yaratgan texnologiyalar va ommaviy axborot vositalari bilan ham bog'liqligini tan olish kerak.

Shu sababdan biz bitiruv malakaviy ishimizning mavzusini "Ommaviy jamiyatda moddiy va ma'naviy madaniyat dealektikasi" deb tanladik.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov adolatli ta'kidlaganidek: "Ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzuvchilik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan bo'ylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi".¹

Ushbu iqtibos tarbiya muammosining g'oyat dolzarbligidan, "ommaviy madaniyat" va uni niqob qilib olgan g'oyaviy buzg'unchi "madaniy" mahsulotlar mavjudligidan, shuningdek, ularni "ommaviy madaniyat" bilan chalkashtirmaslik zarurligidan dalolat beradi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi: Mavzuga oid tahlillar shuni ko'rsatadiki, mazkur mavzu hozirgi paytga qadar mahsus tadqiqot obekti bo'lmagan. Biroq uning ayrim jihatlari mafkuraviy, falsafiy, masalalar bilan birgalikda qisman ko'rib chiqilgan. Chet el faylasuf olimlaridan F.Djeymisson, R.Bart, J.Batay, J.Bodriyyar, U.Eko, Z.Bjenskiy, D.Makdonald, G.Gens, M.Maklyuen va boshqa olimlarning asarlarida ushbu mavzu qisman tadqiq etilgan. O'zbek olimlaridan A.Erkayev, SH.G'oyibnazarov mavzuni o'z ilmiy ishlarida tadqiq etganlar.²

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari: Ushbu mavzuni³ maxsus tadqiq etish hozirgi zamon jamiyatini ham emonenti (ichki xususiyati) hisoblanmish madaniyatni, ommaviy madaniyatni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Bitiruv malakaviy ishning maqsadi ommaviy jamiyatda moddiy va

¹ Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., 2008, 117-bet

² A.Эркаев. Маънавият ва оммавий маданият. Қар ДУ хабарлари. 2013 йил, №3-4, 2014 йил №1.

ma'naviy madaniyatlar qay darajada bog'liq, ularning bir-biriga o'zaro ta'siri hamda inson ongi va qadriyatlar tizimiga aylanish jarayonini o'rganish.

Ularning iste'molchilik psixologiyasi bilan bog'liqligini ko'rsatish natijasida iste'mol qilingan moddiy va ma'naviy buyumlar orasida prinsipial farqning yo'qotib borayotganligini ko'rsatishdir.

Vazifalari: Ishimizning maqsadidan kelib chiqib, bitiruv malakaviy ishning oldiga quyidagi vazifalarni qo'ydik:

- ommaviy jamiyat va uni shakllanishining asosiy sabablarini o'rganish;
- ommaviy jamiyatda madaniyatning ommalashuvini o'rganish;
- ommaviy madaniyat ommaviy jamiyatning ichki xususiyatlaridan biri ekanligini o'rganish;
- ommaviy jamiyatda moddiy va ma'naviy madaniyatlarning bir-biriga ta'siri va ularning o'zaro aloqador ekanligini o'rganish;
- axborot texnologiyalari va boshqa zamonaviy texnologiyalarning moddiy va ma'naviy madaniyatga ta'sirini o'rganish.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy-metodologik asoslari: Ishning muhim nazariy-metodologik asoslarini O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, Prezident I.A. Karimovning mavzuga taaluqli asarlari, nutqlarida ta'kidlangan yangi nazariya, qarashlari tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishini tayyorlashda umumilmiy metodlar, ya'ni analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tizimlashtirish, noaniqlikdan aniqlik tomon borish kabi metodlar bilan birga fanning taqqosiy (komparativ), tizimlilik, tipologik, retrospektiv, muammoli-xronologik, statistik, sinergetika kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ish uchun mavzuga aloqador asarlar va matbuot materiallari manba bo'lib xizmat qildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati: Bitiruv malakaviy ishi yuqorida aytilganidek, hozirgi zamon jamiyati va madaniyati rivojining ayrim tendensiyalarini teranroq tushunishga, ularning o'zaro bog'liqligini ochib berish, ilmiy asoslashga yordam berish qatorida ma'naviy

tarbiyani takomillashtirishga, o'quv jarayonida ushbu masalaga keng qamrovli yondoshishga, uni hozirgi zamon jamiyati taraqqiyoti qonuniyati hamda ziddiyatli muammosi ekanligini anglab olishda ma'lum darajada foydalidir.

Bitiruv malakaviy ish natijalari ma'naviy-ma'rifiy, targ'ibiy-tashviqiy ishlarda hamda milliy g'oya va ma'naviyat asoslari, madaniyatshunoslik kabi kurslarni o'qitishda ommaviy madaniyatning ba'zi bir kamchiliklarini tanqid qilishda foydalanish mumkin.

Bitiruv - malakaviy ishning aprobatsiyasi. Bitiruv - malakaviy ish Tarix fakulteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasida qoshidagi "Milliy g'oya targ'ibotchilari" to'garagida ma'ruza qilingan va kafedra yig'ilishlarida muhokamadan o'tgan.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi: Ushbu ishimizning tuzilishi kirish va xulosadan tashqari to'rt faslni o'zida jamlangan ikki asosiy bobdan hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I.BOB. OMMAVIY JAMIYATDA MADANIYATNING OMMALASHUVI

1.1. Ommaviy jamiyat va uni shakllanishining asosiy sabablari

Jamiyat – insonlarning barcha o‘zaro harakatlari, uslublari va bir-biridan har tomonlama bog‘liqligi ifodalanadigan birlashmalarning yig‘indisidir.¹

Industrial jamiyat kapitalizm rivojlanishi jarayonida o‘rta asrlar jamiyatiga xos tabaqaviy tuzulmalarni hamda hunarmand kosiblarning kasbiy guruhlari korporativ tashkilotlari va shu kabilarni yakson etdi. Yevropa mamlakatlarida oliy tabaqalarga dvoryanlar va ruhoniylar kiritilgan. Ular kata huquq va ijtimoiy imtiyozlarga ega bo‘lganlar. Yuqori mansablarni egallaganlar. Qora mehnat bilan shug‘ullanmaganlar. Tergov va sud jarayonlarida ham ularga nisbatan jismoniy ta’sir ko‘rsatish usullari qo‘llanilmagan. Boshqa tabaqalar mulkiy imkoniyatlarga, boyliklarga qarab ma’lum huquqlarga ega bo‘lganlar. Lekin, dvoryanlar va ruhoniylar kabi imtiyozlarga ega bo‘lmaganlar. Uchinchi tabaqalar orasida sanoatchilar, zavod-fabrika egalari yirik savdogarlar, bankirlar va shu kabilar amalda dvoryanlar va ruhoniylarga nisbatan boyroq bo‘lishlariga hamda jamiyat rivojiga ko‘proq hissa qo‘shishlariga qaramasdan siyosiy hokimiyatdan uzoqroqda saqlanganlar. Yirik davlat nmansablarini egallash huquqiga ega bo‘lmaganlar. Kapitalizm birinchi navbatda sinfiy-tabaqaviy imtiyozlarni bekor qildi va qonun oldida barcha fuqorolarning tengligini e’lon qildi. Ikkinchidan, zavod va fabrikalarda endi bir-biridan ajratilgan individlar ommasi mehnat qila boshladi. Shahar aholisi ham endi biror kasbga ixtisoslashgan mahallalarda emas, ko‘p qavatli uylardan iborat ishchi kvartallarda istiqomat qilar edi. Kasbiy jihatdan birlashgan jamoaviylik individlar ommasi bilan almashdi. Jamiyatning ommalashuvi jamoaviylikning individualizm bilan almashishi boshlandi. Ushbu holat tanqidi E. Byork, J. de Mestr, L.T.A Bonald asarlarida XIX asrning birinchi yarmidayoq o‘z aksini topdi. Ularning asarlarida ommaviy jamiyat konsepsiyasining ilk namunalarini uchratish mumkin. Industrial jamiyat sanoat korxonalaridagi ishchilarning savodxon bo‘lishini texnikaviy bilimlar va

¹Axmedova M. Falsafa. T.2006.259-260-b

malakalarga ega bo'lishini taqozo etdi. Bilim va malakaga bo'lgan talab ishlab chiqarish texnologiyalari murakkablashgan mehnat bozorida esa raqobat kuchaygan sayin ortib borar edi. Dastlab, ommaviy savodxonlikka, keyinchalik esa kasb-hunar va texnik ta'lim paydo bo'lishiga pirovardida aholining bilimlari madaniy saviyasi va ehtiyojlari o'sishiga yo'l ochildi. Ommaviy tirajlarda gazetalar, kitoblar chop etildi, gramplastinkalar chiqarildi. Radio va televideniya, kino, internet paydo bo'lgach, ulardan ham ma'rifiy-mafkuraviy, ham tijoriy maqsadlarda foydalanildi. O'quvchi va tomoshabinlarni jalb qilish uchun adabiyot va san'at asarlariga murojaat etildi. Mashhur xonandalar qo'shiqlari yozilgan gramplastinkalarni sotish, taniqli aktyorlar rol o'ynagan kinofilmlarni namoyish etish mumaygina daromad keltirishi yangi vositalar orqali mumtoz san'at va umuman, madaniyat ommalashuviga xizmat qildi. Jamiyatning industrialashuvi va urbanizatsiyalashuvi G'arb mamlakatlarida XIX asrning oxirlaridayoq hayot sur'atlarini juda tezlashtirib, madaniy turmushni ham keskin o'zgartirib yubordi.¹ Ko'p qavatli uylarning katakdek kvartiralarida yashab, zavod-fabrikalarda kuni bilan ishlaydigan kishi ish joyiga borib-kelish uchun transportda ancha vaqt sarflay boshladi. Mehnat bozorida esa raqobat kuchli – ishsiz qolish xavfi doimo yuqori edi. Aholi tig'iz joylashgan shaharlarda o'zini yolg'iz sezadigan, jamiyatdan bir qadar begonalashgan, qishloqdan kelib o'z ildizidan ajralgan kishilar, shuningdek, ularning keyingi avlodlari do'konlardan shosha-pisha zarur mahsulotlarni xarid qilishga, vaqtini tejashga odatlandi. Ular tayyor holdagi mahsulotlarni sotib olishga, ko'ngilochar havoyi tomoshalarga, konsert, kafe hamda klublarga borib yoki uyda gramplastinkalar tinglab (keyinchalik televizor va videodisklar ko'rib), yengil-yelpi komikslar va shu kabilarni o'qib bir oz dam olishga ham o'rgandi. Odamlarning jamiyatdan hamda bir-biridan begonalashuvi muhitida ko'ngilochar madaniy va sport o'yinlari, tomoshalar, bir turdagi madaniy mahsulotlardan foydalanish, muayyan sport jamoalari, mashhur sportchilar, artistlar va boshqa "yulduz"larga ishqibozlik qilish ularni go'yoki bir-biri va jamiyat bilan

¹ Erkayev A. Ma'naviyat va ommaviy madaniyat. Qarshi DU Axborotnomasi. 2013. №3. 63-bet

birlashtiruvchi omilga, identlik belgisiga aylandi. Shu tariqa asta-sekin yangi ijtimoiy-ruhiy kayfiyat va yangi madaniy voqelik qaror topdi.

Ushbu kayfiyat va voqelik o'tmishdagi avom xalq madaniy voqeligidan, muhitidan keskin farq qiladi. Birinchidan, madaniy mahsulotlar sanoat usulda iste'mol tovari sifatida ishlab chiqarila boshladi. Ular takrorlanmas individuallikka, originallikka ega emas edi. Ikkinchidan, ayni mahsulotlar iste'molchi yashayotgan asl – hayotiy voqelikni emas, balki xayoliy va baxtli gipervoqelikni yaratdi. Bu bilan iste'molchini ancha ovutdi, xayolan bo'lsa-da, bir dam o'zini baxtiyor sezishiga ko'maklashdi. Uchinchidan, aholi turli qatlamlarining didi va ehtiyojiga, shu jumladan, biologik instinktlariga muvofiq behayolik va zo'ravonlikni namoyish etuvchi mahsulotlarni chiqarishni asta-sekin “qonuniylashtirib” oldi. Ekranlarda va komikslarda aks topgan superqahramonlar mehnat qilib jisman ezilgan, asablari charchagan, o'zini nohaq tahqirlangan va aldangan his etuvchi kishilar uchun taskin vazifasini o'tadi. U xayolan superqahramon bilan birga “dushmanlari”dan o'ch olar, junbushga kelgan hirsini qondirar, shu tariqa yig'ilib qolgan alamlari bir oz tarqagandek bo'lardi. Ushbu tendensiya bugungi kungacha davom etib, hattoki kuchayib bormoqda.

XIX-XX asrlar davomida fan va madaniyat taraqqiyoti jihatidan Yevropa mintaqasi boshqalardan uzil-kesil ilgarilab ketdi va natijada “jahon fani”, “umuminsoniy qadriyatlar” deganda birinchi navbatda Yevropa madaniyati unsurlari tasavvur etila boshlandi. Yangi davrdagi bu mintaqaning yutuqlari ko'p jihatdan madaniy integratsiya jarayonlari bilan bog'liq. Bu davrda Yevropa xalqlari (inglizlar, nemislar, fransuzlar va h.k.) mintaqa miqyosidagi o'zaro madaniy axborot almashinuv doirasidan chiqib, o'zga mintaqalarda yaralgan boyliklarni o'zlashtira boshladilar. Sharqshunoslik keng rivoj oldi. Turli fan sohalari sharqshunoslarning yutuqlaridan ijodiy foydalana boshladilar. Yevropaliklarning Osiyo va Afrika mamlakatlari va xalqlari hayotini o'rganishi, bir tomondan, ularning olam haqidagi tasavvurlarini kengaytirib, turli mintaqalarning xalqlarining bir-birlarini tushunish, o'zaro erkin muloqot qilish imkoniyatlarini oshirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, muayyan g'arazli kuchlar uchun o'zlariga

qaraganda iqtisodiy va harbiy jihatdan zaifroq bo'lgan yurtlarni bosib olish, qaramlik asoratiga solishga bo'lgan intilishlari yo'lida xizmat qildi.

XX asr oxiri - XXI asr boshlariga kelib integratsiya jarayonlari yanada avj oldi, zamonaviy axborot texnologiyalarining bemisli rivoji va yagona jahon axborot maydonining shakllanishi bu jarayonning yangi bosqichga ko'tarilishiga, Prezidentning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobida topib aytilganidek, "sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi"¹ga olib keldi.

Siyosatga doir ilmiy adabiyotlarida bunday jarayon "globallashuv fenomeni" deb nomlanmoqda. Prezident asarida bu hodisa oddiy qilib "hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi"² deb tushuntiriladi.

Bashariyat taraqqiyotidagi bunday o'zgarishlarni uzil-kesil "yaxshi" yoki "yomon" deb, salbiy yoki ijobiy hodisa sifatida baholab bo'lmaydi. Kitobda yozilganidek, "har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda – ezgulik va yovuzlik yo'lida foydalanish mumkin."³

Prezident kitobida globallashuv va integratsiya jarayonlarining talay ijobiy imkoniyatlari birma-bir sanab o'tiladi. Ularni umumlashtirib aytiladigan bo'lsa, birinchi navbatda turli sohalarida (jumladan, iqtisod, siyosat, madaniyat sohalarida) "davlatlar va xalqlar o'rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi"⁴ga xizmat qilishi mumkin, va darhaqiqat, bunday hamkorlik munosabatlari kundan-kunga kengayib va rangbaranglashib borayotganini o'z ko'zimiz bilan ko'rib turibmiz.

Shu bilan birga dunyoda barcha odamlar ham ezgu niyatlar bilan ish olib boradi, deyish qiyin. Ba'zilar uchun bu hayotda vujudga kelgan har bir yangilik ularning o'z g'arazli maqsadlariga qulay bir vosita xizmatini bajarishi kerak. Jumladan, jahonda yagona axborot maydonining vujudga kelishi ham bunday buzg'unchi kuchlar uchun "ayni muddao" bo'ldi. Ular zudlik bilan bu qudratli vositani ham o'z qabih niyatlari yo'lida ishga solish harakatiga tushdilar.

¹ Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch.T.2008 s.112.

² Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch.T.2008 s.111.

³ Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch.T.2008 s.112.

⁴ Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch.T.2008 s.111-112.

Vaziyatning murakkabligi shundaki, bunday yovuz niyatli kuchlarning Vatani ham, millati ham, dinu imoni ham yo‘q. Ular goh “islomiy” qiyofada, goh “erkinlik va demokratiyani olg‘a siljitish” niqobi ostida harakat qilishlari mumkin.

Prezident I.A.Karimovning yangi kitobida insonlarning Borliq haqiqatiga munosabatidagi ikki xil yondoshuv, “bir-birini inkor qiladigan ikki xil hayotiy qarash” haqida gap boradi:

“Birinchisi – o‘z nonini halol mehnat bilan topadigan, xolis va ezgu ishlar bilan el-yurtga naf yetkazadigan, tiriklik mazmunini teran anglab, nafaqat bugungi hayot lazzatlari, balki oxirat haqida, uning obod bo‘lishi haqida o‘ylab yashaydigan insonlarga xos hayotiy qarashlar.

Ikkinchisi – bunga mutlaqo qarama-qarshi bo‘lgan yondoshuv, ya’ni, hayotning ma’no-mazmuni haqida bosh qotirmasdan, bunday savollar bilan o‘zini qiynamasdan, faqat nafs qayg‘usi va o‘tkinchi hoyu havasga, huzur-halovatga berilib, yengil-yelpi umr kechiradigan, o‘zining ota-ona va farzand, el-yurt oldidagi burchiga umuman befarq bo‘lib yashaydigan odamlarning fikr-qarashlari.

Mana shunday ikki xil dunyoqarash asosida paydo bo‘ladigan og‘ir savollar odamzot ongli yashay boshlagan zamonlardan buyon uni o‘ylantirib, qiynab keladi...”¹

Shu o‘rinda savol tug‘iladi: befarqlik, loqaydlik bilan yovuzlik orasidagi munosabat qanday? Tan olish kerakki, dunyoda son jihatidan olinsa, mutlaq yovuz odamlar juda kamchilikni tashkil qiladi. Ular aslida odam ham emas, sunami, to‘fon yoki zilzila kabi “xudoning bir balosi”. Shunday ekan, qanday qilib juda ozchilik bo‘lgan bu toifa ba’zan millionlab insonlar ustidan o‘z hukmini yurgiza boshlaydi? Ayni yuqorida aytilgan “hayotning ma’no-mazmuni haqida bosh qotirishni oshiqcha ish deb biladigan, Alloh va bashariyat oldidagi o‘z burchini eslashni ham istamaydigan, faqat nafs qayg‘usi va o‘tkinchi hoyu havasga berilib kun kechiradigan” odamlarning befarq va loqaydligi tufayli bunday yovuz kuchlar o‘z makru hiylalarini bermalol amalga oshirishga muvaffaq bo‘ladilar. Chunki bunday kimsalar ko‘pincha o‘zlari sezmagan holda yovuzlik kuchlariga xizmat

¹ Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch.T.2008 s.22-23.

qiluvchi dahshatli qurolga aylanib qoladilar. Shu sababli Prezidentning yangi kitobida befarqlik va loqaydlik asl insoniylikka zid turuvchi qusur sifatida qattiq qoralanadi.

Aytilganlarga eng yorqin misol sifatida bugungi kunda butun dunyodagi fikrlovchi insonlarni borgan sari qattiqroq tashvishga solayotgan “Ommaviy madaniyat” hodisasining kelib chiqishiga e’tibor qarataylik. Bu hodisa bugun butun dunyoga ko‘proq Yevropa va Shimoliy Amerikaning rivojlangan mamlakatlaridan tarqalayotganini hisobga olib, ushbu mintaqalardagi hozirgi ma’naviy-axloqiy muhitning shakllanish tarixiga qisqa (eng umumiy bir tarzda) to‘xtab o‘tish kerak bo‘ladi.

Ma’lumki, shu kungacha jahon ilmida “ma’naviyat” hodisasi yaxlit tushuncha sifatida izchil ilmiy tahlilga tortilmadi. Bu sohaga oid mavjud izlanishlar boshqacha tushunchalar va tizimlar doirasida kechdi. Xususan, Yevropada inson ma’naviyatiga oid bahslar falsafa va uning tarkibiy qismi hisoblangan axloqshunoslik ilmi doirasida rivojlandi. Inson axloqi aslida zohiriy, aniqrog‘i, ikkilamchi hodisa bo‘lib, shaxs ma’naviyatining insonlar aro munosabatlarda namoyon bo‘lishidir. Uning botinida ma’naviy omillar yotgani tufayli faylasuflar asosan axloqning botiniy omillariga e’tibor qaratganlar. Agar bu sohadagi Yevropa an’anasini umumiy bir tarzda ko‘zdan kechiradigan bo‘lsak, axloqshunoslik ilmi ko‘proq insonning iroda erkinligi, aql va bilim, baxt va lazzatlanishga intilish, manfaatdorlik kabi masalalarga e’tibor qaratganligini ko‘ramiz. Aksariyat holatlarda mas’uliyat va burch masalalari ham inobatga olinadi. Axloqning imonga bog‘liq jihatlari xristian axloqida alohida ta’kid etilsada, Yangi davrda bu masala ko‘pincha aktuallashtirmaydi. Umuman, insonning dunyoviy maqsadlariga alohida e’tibor qaratilishi Yevropa axloq ilmining ustivor jihati deyish mumkin.

Insonning iroda erkinligiga e’tibor masalasida Yevropa faylasuflari Sharqqa nisbatan ancha ilgari ketganliklarini e’tirof etish lozim. Islom mintaqasi madaniyatining ilk shakllanish davrida ushbu masala atrofida ancha qizg‘in bahslar bo‘lib o‘tgan tarixdan ma’lum. Jabariylar va qadariylar orasidagi

munozaralar, mo‘tazila kalomida bu muammoga ayricha e‘tibor axiyri borib Imom Abu Mansur Moturidiy ta‘limotida uzil-kesil hal qilingach, keyinchalik bu muammoga ko‘p ham e‘tibor qaratilmadi. Vaholanki, imom Moturidiy va izdoshlari o‘z davridagi turli bid‘atlar bilan mubohasa jarayonida ko‘proq Alloh qudrati va irodasining mutlaqligini ta’kidlashga urg‘u berish bilan band bo‘lishib, insonning iroda erkinligi masalasida ixtiyor, kasb va fe‘l tushunchalarini sharhlash bilan chegaralangan edilar. Yangi davr Yevropa axloq ilmida insonning iroda erkinligi masalasi deyarli doimo faylasuflar diqqat markazida bo‘ldi. Ayniqsa, nemis mumtoz falsafasining asoschisi Immanuil Kantning g‘ayb olami (“Ding an sich”), “nazariy aql” va “amaliy aql”, insoniy bilim chegaralari haqidagi qarashlari, shu asosda iroda erkinligi va mas’uliyat (burch) nisbatiga alohida e‘tibori diqqatga sazovordir. Kantning fikriga ko‘ra, inson shaxs sifatida erkin iroda egasi bo‘lib, o‘z hayotiy maqsadlarini o‘zi erkin belgilaydi. Shu bilan birga bani basharning har bir a‘zosi o‘zgalar erkini cheklovchi harqanday xatti-harakatdan o‘zini tiyishi kerak. Bunday oliy mas’uliyatni faylasuf “qat’iy qoida” (“kategoricheskiy imperativ”) deb nomlaydi.

Immanuil Kantning falsafasi inson ruhining abadiyligi va yagona oliy ilohiy qudratning mavjudligini bevosita axloq bilan bog‘lab izohlagan bo‘lsa, keyingi asrlar Yevropa falsafasi rivojida yana umumbashariy meyorlardan uzoqlashuv kuchayib bordi. Yangi Davr Yevropa ilmida axloqni o‘rganuvchi aksariyat yo‘nalishlar moddiyunchilik asosiga qurilib, axloqiy meyorlarning shakllanishini faqat insonning moddiy (dunyoviy) ehtiyojlaridan keltirib chiqarishga urindilar. Ularga ko‘ra axloqning negizida baxtli bo‘lishga intilish, lazzatlanishga intilish, manfaatdorlik, sharoitga moslashish kabi sof dunyoviy maqsadlar nazarda tutiladi. Milliy ma’naviyatimiz an’analarida shaxs ma’naviyatining asosiy jihatlari – imon, ilm, mas’uliyat, mehrning o‘zaro uyg‘unligi masalasi ustivor yo‘nalish ekanligi ma’lum. Muayyan tarixiy sabablarga ko‘ra Yevropa axloq ilmida ayni shu o‘zaro mutanosiblikka yetarli e‘tibor qaratilmadi. Natijada, bugungi kunga kelib, ushbu mintaqada ma’naviy-axloqiy sohada juda og‘ir muammolar kelib chiqmoqda.

Bizning nazarimizda, axloqning ikki jihati bor, birinchisi – zohiriy (tashqi) tomoni bo‘lib, insonlar aro munosabatlarda o‘rtacha mo‘tadil meyorini saqlab turishga xizmat qiladi va u sharoitga moslashib o‘zgarib turishi mumkin. Ikkinchisi – botiniy (ichki), ya’ni shaxs ma’naviyati bilan bog‘langan tomoni bo‘lib, bu jihat endi tashqi shart-sharoitga emas, balki shaxsning imon-e’tiqodiga bog‘liq bo‘ladi. Agar bunday inson sharoit taqozosi bilan imon-e’tiqodiga zid xatti-harakat qilishga majbur bo‘lsa, unda vijdon azobiga uchraydi. Demak, “vijdon azobi” hodisasi zohiriy axloq talablari bilan shaxs imoni orasida ziddiyat mavjud bo‘lgan holatlarda paydo bo‘ladi. Materialistik (aniqrog‘i, dahriyona) dunyoqarashga asoslangan axloqiy ta’limotlarda odatan zohiriy tomonga e’tibor qaratiladi va imon hisobga olinmaydi. Axloqni ijtimoiy muhit bilan yoki insonning fiziologik (biologik) ehtiyojlari bog‘lab izohlashga urinish ana shunday qarashlar natijasida tug‘iladi. Vaholanki, na ijtimoiy muhitning, na fiziologik ehtiyojlarning axloqqa bevosita aloqasi yo‘q.

Shaxs axloqining zohiriy jihati – jamiyatdagi mavjud axloqiy meyorlarga bo‘ysunish, rioya qilish bilan ifodalanadi.¹ Jamiyatning axloqiy meyorlari esa mohiyatan ma’naviyatga emas, balki siyosat sohasiga taalluqli bo‘lib, jamiyatdagi umumiy osoyishtalik va barqaror vaziyatni ta’minlashga qaratilgandir. Aslida ular meyoriy (yozilmagan) qonun-qoidalar shaklida bo‘lib, siyosatdagi axloq qatlamining yuza qismini tashkil etadi. Bizning mintaqada mukammal ishlangan (xulqi) orasidagi munosabatlari zaminiga qurilgan bo‘lib, imon-e’tiqod masalasi bu o‘rinda yetakchi ahamiyatga egadir.

Jahon axloq ilmining falsafiy ildizlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, unda ham ikki xil yondoshuvni kuzatish mumkin. Biri – inson faqat moddiylikdan iborat, uning hayoti (borlig‘i) faqat tug‘ilgandan jisman o‘lgungacha davom etadi, o‘lgach, jasad tuproqqa qorishib ketadi, “ruh” degani ruhiyat (psixika) bo‘lib, insonning moddiy vujudi tirikligi paytidagina asab tolalarining yashash tarzi sifatida mavjud bo‘lib, inson jismi halok bo‘lgach, o‘z-o‘zidan yo‘qolib ketadi, degan materialistik e’tiqod. Bu e’tiqodga ko‘ra, inson hayvondan faqat moddiy

¹ Hamdamova M. Ma’naviyat asoslari. T. 2008. 61-b

a'zo – bosh miya yarim sharlari po'stlog'ining funksiyasi bo'lmish aqlning rivojlanish darajasiga ko'ra farqlanadi, ya'ni inson va boshqa biologik mavjudotlar orasidagi farq aslida miqdoriydir, sifatiy emas. Tabiiyki, miya o'lgach, uning funksiyasi ham yo'q bo'ladi. Bundan shunday xulosa chiqadi: demak, inson o'z xatti-harakati uchun bu dunyoda, tiriklik davrida, jamiyat, ya'ni o'zga insonlar oldida javob beradi, xalos. Bunda u boshqalar ko'zi tushgan amali uchungina javob beradi, uning ko'ngli, niyatlari boshqalar ko'zidan yashirin, nimani o'ylasa, o'zi biladi, o'zgaga daxli yo'q, hatto boshqalar nigohidan pinhona qilgan ayb ishlari ham agar birov bilmasa, unga zarar keltirmaydi (mabodo birov bilib qolsa, o'sha guvohni “sotib olish” yoki “gumdon qilish” imkoni ham yo'q emas), siyosatda esa kim g'olib chiqsa, o'sha haq degan yozilmagan “qonun” mavjud. Qisqasi, ruslardagi “ne poyman – ne vor” qoidasi asosida yashayverasan, har qancha jinoyatlar qilma, kimdir ularni fosh qilmasa (yoki muayyan sabablarga ko'ra fosh qila olmasa), umring oxirigacha rohat-farog'atda yashab o'ta berasan. Qani bu yerda “vijdon” degan tushunchaning o'rni?

Bunday dunyoqarash sohiblarining axloqi faqat zohiriy bo'lib, jamiyatdagi mavjud axloqiy meyorlarga rasman rioya qilish bilan cheklanadi. Yevropa axloqshunosligidagi gedonizm, evdemonizm, utilitarizm, relyativizm axloqiy prinsiplari ayni shunday moddiyunchilik asosiga qurilgan bo'lib, bunday qarashlarga ko'ra axloqning negizida baxtli bo'lishga intilish (albatta, bu dunyoda, chunki oxiratda inson o'z erki bilan taqdirini o'zgartira olmaydi), lazzatlanishga intilish (bu lazzat xoh shahvoniy bo'lsin, xoh intellektual), manfaatdorlik, sharoitga moslashish kabi sof dunyoviy maqsadlar nazarda tutiladi.

Ikkinchi yondoshuv – inson moddiy mavjudot, ammo undagi ruh abadiy, bu dunyo hayoti inson uchun sinov maydoni bo'lib, uning har bir qadami o'lchovli, u har bir xatti-harakati, amali uchun Oliy qudrat oldida javob beradi, agar savobli ish qilsa, ham bu dunyoda, ham oxiratda mukofotini oladi, agar gunoh qilsa, yoki bu dunyoda, yoki oxiratda jazosini oladi, deb e'tiqod qilish. YA'ni Borliqning asosi moddiylikdangina iborat emas, balki bu olamni yaratgan va boshqarib turgan azaliy va abadiy Oliy qudrat mavjud, deb ishonish, shunga imon keltirish. Imon

keltirish bilan ushbu Oliy qudrat oldida mas'uliyat tuyg'usi paydo bo'ladi. Ana shu asosda shakllangan axloq haqiqiy axloq bo'ladi. "Axloq – ma'naviyatning o'zagi" degan ta'rifda ayni shu jihat inobatga olinadi.

Shaxsning xulqi uning ma'naviyati ta'sirida takomillashib (ya'ni tabiiy hislatlari qusurdan fazilatga aylanib) borgan sari uning axloqi zamima axloqdan (insonni xudbinlik sari tortuvchi tarbiya ko'rmagan xulqdan) hamida axloqqa (ma'naviy kamolot natijasida go'zallashgan xulqqa) aylanib boraveradi. Nafs tarbiyasi – ma'naviy kamolot yo'li bo'lib, axloqi hamidaning shakllanish yo'li hamdir. Ammo ma'naviyat faqat nafs tarbiyasidan iborat emas. Ma'naviyat imondan boshlanadi, ilm bilan mukammallashadi, tahliliy imon orqali inson nafs tarbiyasi (samovospitaniye)ga o'tadi va oxiri mehr ma'rifati orqali ma'naviy kamolotga erishadi. "Axloq – ma'naviyatning o'zagi " degan hikmatning mazmuni shundaki, insonning ma'naviy kamolot darajasi uning axloqida eng yorqin shaklda namoyon bo'ladi. Agar inson faqat taqlidiy imon darajasida qolgan bo'lsa, u Allohning borligi va birligini tan olgan bo'ladi, buyurilgan farzlarni baqadri imkon bajarishga urinadi, ammo axloqi hamida sohibi bo'lmaydi.

Yuqoridagi mulohazalar I.A.Karimov kitobida bir jumlada bayon etilgan: "G'arb olamida esa odamlarning hayot tarzida jamoaviylikdan ko'ra individualizm, shaxsiy manfaat tamoyillari ustunlik qilishini kuzatish mumkin. Bu ham muayyan, obektiv ijtimoiy-tarixiy omillar tufayli shakllangan voqelik bo'lib, uni ham inkor etib bo'lmaydi"¹.

Yangi davr Yevropa axloq ilmidagi asosiy kamchilik xristian dinidagi yanglishuvlar bilan bog'liq, bu yanglishuvlar esa Allohning so'ziga (ya'ni muqaddas kitob bo'lmish asl Injil matniga) bandalarning so'zlari aralashib ketganligi sababli yuzaga kelgandir². Milodiy I-III asrlarda yashagan ilk xristianlar o'z tarixiy sharoitlaridan va o'sha davr tafakkur darajasidan kelib chiqib, Iso(a.s.)ning risolatlari va da'vatlari mohiyatini o'zlaricha talqin etishlari, IV asrga kelib xristian dini rasmiy maqomga erishgach, xristian ulamolarining

¹ Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch, s.10.

² Qarang. Moris Bukay. Bibliya, Koran i nauka. M., 1999.

katta yigʻinlarida qabul qilingan mohiyatan xato aqidalarning muqaddaslashtirilishi natijasida bu sohada tuzatish mushkul boʻlgan chalkashliklar vujudga keldi. Bu chalkashliklar zaminida shakllangan “cherkov otalari”ning taʼlimoti keyingi ming yil davomida butun mintaqada odamlar ongi-shuurida hukmronlik qildi. Bora-bora bu xato qarashlar xristian dinining mohiyati darajasida qabul qilinadigan boʻldi. Oʻz vaqtida islomning yoyilishiga hukmron cherkov doiralari butun qudrati bilan qarshilik qildi (salb yurishlarini eslaylik). Yangi davrga kelib ilm-fanning rivoji yanglish diniy qarashlar bilan borgan sari ziddiyatga kirishib, ilgʻor fikr egalari ongida dahriylik tamoyillari kuchayib bordi. Afsus bilan qayd etish kerakki, bu masalada islom dunyosi ulamolari ham mohiyatga chuqur kirib borib, Yevropadagi yangicha tamoyillarni diqqat bilan kuzatish yoʻlidan bormadilar, qaytaga XV asrdan keyin musulmon olami tafakkurida turgʻunlik, kibrlanish va yalqovlanish kuchaydi, IX-X asrlarning oʻziga xos sharoitida shakllangan ahli sunna va jamoa aqidalarini tanqidiy qayta koʻzdan kechirish hech kimning xayoliga kelmadi. Eng asosiysi, bu yerda ham Alloh kalomi va bandalarning talqinlari orasidagi sifatiy farqqa eʼtibor kamaydi. Natijada, Yangi davr Yevropa tadqiqotchilari tabiiy va aniq fanlar taraqqiyotiga mahliyo boʻlib, maʼnaviyat sohasida borgan sari imondan uzoqlashib, chalkash nazariyalar girdobiga tortilib ketayotganliklarini sezmay qoldilar. Bu eʼtiborsizlik va chalkashliklarning ogʻir asoratlari bugungi kunga kelib endi butun zalvori bilan insoniyat kelajagiga jiddiy xavf sola boshladi.

Qisqasi, Yevropa xalqlari ijtimoiy va madaniy sohalarda oʻz tarixiy tajribalaridan kelib chiqib, oʻz ajdodlari qoldirgan merosga mos holda, ilmiy andoza va oʻlchovlar yaratganlar, taʼrif va tizimlar shakllantirganlar. Biz ulardan kamchilik topishga yoki qoralashga balki haqqimiz yoʻqdir. Ammo oʻzbekning milliy tafakkuri oxirgi 70 yilda shakllangan deb boʻlmaganidek, bugun endi maʼnaviy-axloqiy sohalarda ilmiy mulohazalar yuritish uchun ongimizga kechagi zoʻraki joylashtirilgan sunʼiy qoliplardan oʻylamay-netmay foydalanishga urinishimiz ham oʻrinli emas.

“Ommaviy madaniyat” hodisasi asosida bir necha omillarning chatishuvi yotadi. Ulardan birinchisi - imonsizlik, o‘z insoniy burchi va mas’uliyatini tan olishni istamaslik, befarqlik va loqaydlik. Ikkinchisi - sanab o‘tilgan qusurlarni oqlashga xizmat qiluvchi “dunyoni manfaat boshqaradi” (demak, bu dunyoda har kim o‘z foydasi uchun qo‘lidan kelgan harakatini qilsa, bo‘laveradi, degan) dahriyona (aniqrog‘i, xudbinona) tezis (“qoida”) asosida yashash. Bu ikki omil azaldan bo‘lgan. Uchinchisi – oldingilaridan kelib chiqadigan axloqiy relyativizm, ya’ni dunyoda azaliy va abadiy qat’iy axloqiy meyorlar mavjud emas, ko‘pchilik o‘zini qanday tutayotgan bo‘lsa, biz ham shunga qarab ketaveramiz, degan o‘ysizlik, fikriy dangasalik tamoyili. Va nihoyat to‘rtinchisi - bugungi axborot vositalarining cheksiz imkoniyatlari sharoitida yuqoridagi Prezident ta’rifiga muvofiq, befarqlik va o‘ysizlik botqog‘iga botgan kimsalarning dunyoni boshqarishga intilayotgan kichik bir guruh qo‘lida qo‘g‘irchoqqa aylanib, o‘zlarining eng tuban hayvoniy xohish va istaklarini ochiqdan-ochiq namoyon qilishni “umuminsoniy axloqiy meyorlar” darajasiga ko‘tarishga urinishlaridir. Bunday holatlar Yevropa mintaqasi tarixida ilgari ham bo‘lgan, ammo hech qachon bu daraja jahon miqyosida keng ko‘lam kasb etmagan va bu darajada kuchli targ‘ibot imkoniyatlariga ega bo‘lmagan edi. Prezident kitobida bu haqda shunday deyiladi: “Shuni unutmaslik kerakki, bugungi kunda inson ma’naviyatiga qarshi yo‘naltirilgan, bir qarashda arziyas bo‘lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo‘lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin.”¹

¹ Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch, s.115.

1.2.Ommaviy madaniyat – ommaviy jamiyatning imonentidir

Ommaviy madaniyat – ommaviy jamiyatning ichki xususiy belgisidir (immanentidir). Nitsshe O.Shpengler, Ortega-i-Gasset, Adorno, Berdyayev kabi faylasuflar o‘z davri madaniyatini ommaviy jamiyat konsepsiyasi bilan bog‘ladi. Ularning xulosasi tushkun edi – yuksak madaniyat omma va olomon bilan to‘qnashuvda vayron bo‘ladi! Ta’kidlash joizki, kapitalizm rivojlanishi jarayonida ommaviy jamiyat nazariyasi ham rivojlandi.

U endi ijobiy talqin qilina boshladi (D.Martindeyl, D.Bell, E.Shills). Nazariya “xalq kapitalizmi”, “umumiy farovonlik davlati”, “yagona o‘rta sinf” konsepsiyalari ta’sirida o‘zgardi. Ushbu konsepsiyalarga binoan, ommaviy jamiyatda ijtimoiy-sinfiy farqlar yo‘qoladi, odamlarga teng imkoniyatlar yaratiladi. Kapitalistik jamiyatda aristokratiya va boshqa elitar tabaqalarning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy mavqei tushib ketdi.

“Elitar madaniyat” tushunchasi odamlar ongida sobiq aristokratiya madaniyatini anglatuvchi atamaga aylana boshladi. Shu bois endi fanda ko‘proq “yuksak madaniyat” tushunchasi qo‘llanila boshladi. Ommaviy madaniyat atamasi mazmuni ham o‘zgardi. Yuqorida ta’kidlanganidek, u zamonaviy texnologiyalar va OAV yordamida yaratiladigan madaniyatni, ko‘ngilochar industriya va hordiq chiqarish hamda axborot olish (birja kotirovkalari, narx-navo, jahondagi iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy yangiliklar, tovarlar va xizmatlar reklamasi, turli “yulduzlar” va siyosatchilar hayoti, sport yangiliklari va h.k.) va turmushning boshqa qulayliklarini anglata boshladi.

Ommaviy madaniyatni bugungi kundagidek tushunishning shakllanish bosqichlari, elitar va ommaviy madaniyatga doir klassik, postklassik va zamonaviy falsafayu sotsiologiyadagi turli oqimlarga mansub qarashlar A.Kostinaning “Ommaviy madaniyat postindustrial jamiyat fenomeni sifatida” degan kitobida ancha batafsil va ilmiy jihatdan xolis yoritilgan.¹

¹ Костина А. Массовая культура как феномен постиндустриального общества. Изд.5-ое, М., Изд-во ЛКИ, 2011

Hozirgi davrda jahon miqiyosida kechayotgan globallashuv jarayonlari XX asrning oxiri XXI asr boshlarida butun insoniyat, yer yuzidagi barcha xalqlar va millatlar taraqqiyoti uchun, ayniqsa yosh avlod uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlar yaratib berganini hech kim inkor etolmaydi.¹

Bu borada fan va texnikaning ilg‘or yutuqlari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, internet tizimi turli davlatlar va mintaqalar o‘rtasidagi chegaralarni ochib, o‘zlari hamkorlik va integratsiya rivojiga so‘zsiz katta hissa qo‘shayotganiga bugun barchamiz guvohi bo‘lmokdamiz.

Lekin, davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, inson tafakkurining yuksak va yorqin misoli bo‘lgan bunday yutuqlar ayni paytda katta kuch-quvvat va moliyaviy imkoniyatlarga ega bo‘lgan ayrim siyosiy kuchlarning g‘arazli niyatlarini amalga oshirishda mafkuraviy qurol sifatida ishlanayotganini ham e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Odamlarning, birinchi navbatda yoshlarning ongu-tafakkurini, ma’naviy olamini izdan chiqarishga qaratilgan.

Bunday urinishlarning asl mohiyati, ularning uzoq va davomli salbiy oqibatlarini anglash va bunday xavf-xatarlarning oldini olish bugungi kunda o‘ta muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

Xar tomonlama chuqur o‘ylangan moliyaviy va moddiy manbalarga ega bo‘lgan bunday harakatlarning ortida qanday maqsadlar turibdi, ular uchun bu qadar ko‘p kuch va mablag‘ sarflanayotganini qanday izohlash mumkin. Shu bois "Ommaviy madaniyat" deb atalayotgan olomonchilik balosi xuruj qilayotganini hali-hamon anglab yetmayotgan, hayotimizda bu ofatning ilk ko‘rinishlari namoyon bo‘layotganini sezmayotgan odamlar oramizda yo‘q emas. Xolbuki, yaqin-yiroq yurtlarda "Ommaviy madaniyat"ga yoppasiga ergashishdan kelib chiqayotgan fojiali oqibatlarni ko‘rib turgan bo‘lsakda, go‘yo u bizni chetlab o‘tayotgandek loqaydlik, beparvolik xolatidamiz.

Xo‘sh "Ommaviy madaniyat" nimasi bilan xatarli?

¹Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. T. 1999.

"Ommaviy madaniyat-ko'p hajmda sanoat usulida ishlab chiqariladigan madaniyat elementlarining umumjahon ehtiyojlarini qondiruvchi majmuidir. Bugungi zamonaviy fan "Ommaviy madaniyat"ning (inglizcha-mass culture) tub zamirida tijorat, moddiy manfaatdorlik borligini e'tirof etadi. Bu turmush tarzimizga Ommaviy axborot-vositalari va boshqa vositalar orqali targ'ib-tashviq qilinadi, tarqatiladi, amalga oshiriladi. Ommaviy madaniyat mazmunini zamonaviy sanoat ishlab chiqarilishi, kino-televideniya, kitoblar, gazetalar, jurnallar, sport, turizm va boshqalar tashkil etadi. U mahsulotlarni iste'mol qilish-Ommaviy iste'moldir, chunki mazkur madaniyatni iste'mol qiladigan auditoriya katta zallar, stadionlar, kinoekran, televideniya ishqibozlaridan iborat bo'lgan Ommaviy auditoriyadir.

Bugungi kunda ko'pchilik yoshlar odobni, kiyinish, muomala madaniyatini asosan Ommaviy madaniyat orqali olmoqdalar. Bunda reklama ham xizmat qiladi.

Misol uchun: urf bo'layotgan yangi yo'nalishdagi qo'shiqchilik, turli musiqiy shoular, kassabop filmlar foyda ko'rish, boylik orttirishga xizmat qilish bilan birga yoshlar tarbiyasiga ta'sir qilmoqda. Bu esa "Ommaviy madaniyat"ning keng quloch ochishiga zamin hozirlayapti. "Ommaviy madaniyat" namoyondalari jamiyat a'zolari didini belgilovchi ma'lum bir andozalarni shakllantirishyaptiki, bir qarashda bu zararsiz, hatto yoqimli bo'lib tuyulyapti. Bu aynan yangi jamiyat bunyodkorlari yoshlarni o'z domiga tortibgina qolmasdan, ularni mazkur madaniyat targ'ibotchilariga aylantirib qo'yayotganligi bilan xatarlidir.

Bu borada Prezidentimiz I.A.Karimov shunday deydilar: "Hozirgi kunda g'oyaviy muholiflarimiz, ma'naviyatimizga qarshi kuchlar aholimizga, ayniqsa yoshlarimizga nisbatan axborot xurujlari uyushtirishga, "Ommaviy madaniyat" shaklidagi puxta niqoblangan tahdid va ta'sirlar o'tkazishiga urinmoqda."¹

O'tgan asrning 50- yillariga kelib, kishilik hayotini Ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur qilish mushkullashdi. Targ'ibotning yangi vositalari orqali mustamlakachilik siyosatining shaklu-shamoyilini tubdan o'zgartirib, xalqlarni

¹ I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T., 2008.-46-b

tobe qilish, yangi-yangi hududlarda hukmronlik o'rnatishdagi muddaolarini amalga oshirishga urinmokdalar.

"Ommaviy madaniyat"ning salbiy jihati shundaki, u odamzodning erkin fikrlashiga tish-tirnog'i bilan qarshi. Bir qarashda u "Ommaviy madaniyat" hurfikrlilik, inson erki tarafdoridek ko'rinadi, lekin barcha sohalarda uning ilmu-amalining negiziga e'tibor berilsa, insonning fikrlashiga, tafakkur qilishiga zid ekani ayon bo'ladi. Eng avvalo "Ommaviy madaniyat" shaxsning ijtimoiylashuviga imkon bermaydi. Aksincha, yon-atrofida ro'y berayotgan voqea-jarayonlarga loqayd, yurt taqdiriga mutlaqo befarq avlodni shakllantiradi, umuman, jamiyatda beparvolik kayfiyati hukm surishiga xizmat qiladigan har qanday hatti- harakatni rag'batlatiradi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Xalqimiz oqko'ngil, sodda va ishonuvchan, matbuotda bosilgan, televideniyadan, radiodan aytilgan gaplarga ishonch bilan qaraydi. Chetdan turib bizga qarshi olib borayotgan informatsion markazlar hali shundan foydalanib qolishga urinadi".¹

Prezidentimiz har gal o'z asarlarida bu xatarga qarshi kurashining mustahkam mexanizmini shakllantirish lozimligi haqida fikr bildirar ekan, "Ommaviy madaniyat" niqobidagi tushunchalar bilan umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi tafovutni ilg'ash mumkinligini ta'kidlaydi. "Ommaviy madaniyat" jamiyatining ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda milliy-maishiy hayotni zimdan ta'qib qilib boradi. Hatto milliy, diniy tarbiyadan, urf-odatlardan begonalashish, ularni mensimaslikka da'vat qilish hollari ham kuzatalayotgani tashvishlidir. Bundan manfaat izlovchi turli yot kuchlar qurboniga aylanib boradi.

Bu illatga qarshi qanday kurash usullari borligi hususida fikr yuritsak, bu masalaga yechim sifatida albatta tarbiya milliy bo'lishi, yoshlarni milliy g'oya assosida voyaga yetkazish lozim, deb ta'kidlagan bo'lar edik.

Dunyodagi har bir xalqning o'ziga xos an'analari, urf-odatlari milliy qadriyatlari bor. Muayyan zaminda kurtak ochib, necha yuz yillar davomida

¹ I.A.Karimov "Eng asosiy mezon-hayot haqiqatini aks ettirish".-T.,o'zbekiston, 2009 y. 13-b

shakllangan va sayqal topgan ma'naviy mezonlar shu millatning, shu xalqning bebaho boyligi hisoblanadi. Hayotimizga shiddat bilan kirib kelayotgan texnika va texnologiya, globallashuv jarayonlarida bunday boylikning mohiyatni yanada chuqurroq anglash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bugun keskin tus olayotgan "Ommaviy madaniyat" ham ma'naviy tahdidlardan biridir.

Zamonaviylik, tezkor taraqqiyot bilan hamqadam bo'lish yoshlarimizning hayot tarziga aylanib bormoqda. Albatta, bu quvonarli hol. Chunki bir nechta tilda bemalol so'zlasha olish, internet olamiga kirib dunyo yangiliklaridan boxabar bo'lish imkoniyatining mavjudligi ularning bilimi, dunyoqarashi kengayotganidan darak beradi. Biroq globallashuv jarayonlarida turli g'oyalar kurashi, axborot xurujlari, mavkuraviy tazyiqlar tobora avj olayotgani sir emas. Bugun arzimadek tuyulgan kichik xabar ham odamlarning, ayniqsa yoshlarning hayotini o'zgartirishga qodir kuch bo'lishi mumkin.

Ayni paytda dunyoda demokratiya va erkinlik, oshkoralikning "yagona va standart"ini zo'r berib targ'ib qilayotgan buzg'uncha kuchlar insonlar ongiga ta'sir ko'rsatishning turli yo'llaridan foydalanishga harakat qilmoqda. "Ommaviy madaniyat" ana shu yo'lda juda muhim vazifani- inson ma'naviyatini yo'qotish orqali uni bo'ysundirishga xizmat qiladi. Ularning fikricha, har bir millat, mamlakaning milliy madaniyati, ma'naviyati va qadriyatlari "eskilik sarqiti" bo'lib, ular "ko'z - ko'z" qilayotgan "madaniyat" esa ryuson huquqlarini cheklamaydigan, har kim erkinligidan bemalol foydalanishga asoslangan emish.

Shu o'rinda bobokalonimiz Alisher Navoiyning quyidagi satrlari yodga tushadi:

Oldig'a qo'yganni yemak hayvon ishi,

Og'ziga kelganni demak nodonni ishi.

Bu so'zlarni chuqur tahlil qilsak, har bir narsaga erkinlik beradigan "Ommaviy madaniyat" niqobining tagiga asl maqsad yaqqol ko'rinadi.

Aslida "Ommaviy madaniyat" soyasida kirib kelayotgan axloqsizlik, behayolik zo'ravonlik va buzuvchilik kabi illatlar dunyodagi hech bir xalqning milliy madaniyatiga ham, umumbashariy qadriyatlarga ham to'g'ri kelmaydi. Hususan,

bizning zaminimizda tugʻilib oʻsgan, jahon madaniyati va sivilizatsiyasiga ulkan hissa qoʻshgan Imom Buxoriy, Burxoniddin Margʻiloniy, Ahmad Fargʻoniy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulugʻbek va boshqa koʻplab buyuk ajdodlarimiz qoldirgan meros bugun ham dolzarbligini yoʻqotgani yoʻq. Xalqimizning goʻzal maʼnaviy qadriyatlarga yoʻgʻrilgan or-nomus, uyat va andisha sharmu hayo kabi tushunchalari hayotimizga singib ketgan. Ayniqsa, ota-onaga hurmat, ayolga ehtirom, mardlik va jasurlik singari tuygʻularimiz butun dunyo xalqlarini rom etib keladi.

Mamlakatimiz aholisining katta qismini yoshlar tashkil etadi. Shu bois "Ommaviy madaniyat" taxdidiga qarshi tura olish tobora dolzarb ahamiyat kasb etayotir. Prezidentimiz Islom Karimov "Yuksak maʼnaviyat - yengilmas kuch" asarida bu masalaga toʻxtalib, axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl maʼnaviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bogʻliq holatlar bugunga taraqqiyotga, inson hayoti, oila va muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda, deya alohida taʼkildaydi.

Bugun turli yoʻllar bilan, har xil "ezgu" niqoblar ostida "Ommaviy madaniyat" mamlakatimizga ham taxdid solayotgani sir emas. Ayniqsa, jangari filmlar, yoshlarni soatlab oʻtirishga "majbur" qilayotgan kompyuter oʻyinlari betoʻxtov yovuzlikni targʻib etsa, bolasining otasi kimligini bilmasdan boshi qotib DNK tekshiruvini oʻtkazmoqchi boʻlgan xonimlar haqidagi seriallar, internet olamida ayol va erkaklarga lazzatlanish haqida berilayotgan "eng yaxshi maslahatlar" faxsh hamda buzuqlik koʻchasi sari chorlaydi.

Buning ustiga estrada sanʼatiga kirib kelayotgan ayrim yoʻnalishlar va qoʻshiqlar, kliplar, yaratilayotgan kinofilmlar, reklama roliklarida targʻib etilayotgan turlicha kiyinish va soʻzlashuv "madaniyati", umuman hayot tarzimizga toʻgʻri kelmaydigan holatlarga yoʻl qoʻyilayotgani achinarlidir.

"Ommaviy madaniyat kirib kelmaydi, avvalo juda kichik detallar, arziyas voqealar orqali odamlarni oʻziga oʻrgatadi, koʻniktiradi. Ana shunda 3-4 yoshdagi farzandimiz reppe boʻlib kuylasa ham, oʻgʻlimiz qulogʻiga zirak taqib, qizimiz

yirtiq shimni kiyganida ham "zamona zayli" deya beparvo bo'lamiz. Qolaversa, farzandimizning zamonaviyligidan quvonamiz.¹

Mintaqamizdagi davlatlardan birida qandaydir nodavlat tashkilotining granti "beg'araz" ko'magi asosida maktab o'quvchilari uchun ko'p ming nusxada darslik chop etadi. Bir qarashda bu xayrli tadbir ezgulikni, yoshlarning bilim olishini ko'zlab amalga oshirilgandek. Lekin darslikning ichiga kiritilgan ayrim sahifalar, turli xulosayu tavsiyalar, erkinlik va demokratiya to'g'risidagi yondashuvlar murg'ak yoshlar ongiga buzg'unchi g'oyalarni pinhona kiritishga qaratilgan kitob tarqalib bo'lgandan keyingina aniqlandi.

"Ommaviy madaniyat"ni targ'ib qilayotgan g'arazli kuchlarga aslida hech qanday madaniyat va inson ma'naviyati, axloqiy qoidayu qadriyatlarining aslo keragi yo'q. Ularning strategik reja va siyosiy maqsadlariga erishish, ayrim mamlakatlarning yer osti, yer usti boyliklariga ega bo'lish, o'z izmiga solish uchun bu bir vosita, xolos. Bir so'z bilan aytganda hamma narsaga erkinlik nuqtai nazaridan qaraydigan "Ommaviy madaniyat"ning asosiy maqsadi- odamning irodasini susaytirish, o'zining hayotiga, atrofidagi odamlarga qarshi qo'yish va oxir oqibatda erkinligidan judo qilishdir.¹

Prezidentimiz I.A.Karimov 9 may Xotira va qadrlash kunida jurnalistlar bilan suhbatda qo'shni Afg'onistondagi vaziyat haqida fikr bildirar ekan: "Afg'oniston xalqini, uning tarixini, madaniyatini, diniy-milliy qadriyatlarini toptash emas, aksincha, hurmat qilish yo'li bilangina turli millat va ellatlarni bir-biriga yaqinlashtirish, u yerda tinchlik va barqarorlik o'rnatish mumkinligini" alohida ta'kidladi. Ushbu fikrning o'ziyoq xalqning ma'naviyatini mensimaslik, "Ommaviy madaniyat"ni keng yoyish qanchalik ayanchli oqibatlarni keltirib chiqarish mumkinligini isbotlaydi.

Mamlakatimizda istiqlolning dastlabki yillaridanoq umumbashariy va demokratik qadriyatlarni chuqur o'zlashtirgan holda barpo etilayotgan hukuqiy va

¹Shermuxammedov S.A.Ochildiyeu.Madaniyat va sivilizasiY.Quvasoy. 1999 yil 17-b.

²Erkayev A. Ma'naviyat va taraqqiyot. T.2005. 58-59-b

demokratik jamiyat qurish yo‘li bugun o‘zini to‘la oqlamoqda. Inson huquq va erkinliklari, fikrlar rang-barangligi, har bir xalqning an‘ana va qadriyatlariga ehtirom ko‘rsatish jamiyatimizning eng muhim tamoyillari etib belgilangan.

"Ommaviy madaniyat" G‘arb dunyosida o‘tgan asrning ikkinchi yarmida shakllandi. Uni G‘arbda "populyar" yoki qisqartirilgan holda "pop-kultura" (ya‘ni "Ommaviy madaniyat") deb atashadi. Garchi "madaniyat" deb atalsa-da, aslida, tub mazmun-ma‘nosiga, maqsad-niyatiga ko‘ra "Ommaviy madaniyat" chinakam madaniyatning kushandasidir.

Mutaxassislar (faylasuf va sotsiolog olimlar)ning fikricha, hali ilm-fanda "antikultura" ("g‘ayrimadaniyat" degan ilmiy tushuncha shakllanmasligi uchun "Pop (Ommaviy) madaniyat" tushunchasi, nochorlikdan qo‘llanilmoqda. Chunki, "Ommaviy madaniyat" shu boisdan, eng avvalo, yuksak ma‘naviyatsizlik va axloqsizlik sinonimidir. "Ommaviy madaniyat" shu boisdan, eng avvalo, yuksak iste‘dod va o‘lmas ma‘naviy-axloqiy g‘oyalar bayroqdori bo‘lgan mumtoz madaniyatga, san‘atga, uning boyliklariga qarshi tish-tirnog‘i bilan kurashib, uni inkor etib kelyapti. G‘arb dunyosining o‘zidagi faylasuflar, sotsiolog olimlar, "Bizga "To‘qqizinchi simfoniya" (Btxoven) kerak emas!" yoki "Mona Liza"ni loyga qorishtiramiz!

Kabi jaholatparastlikka asoslangan xitoblar "Ommaviy madaniyat" tarafdorlari va muxlislarining dasturiy qarashlari negizini tashkil etadi, deb yozadilar.

Taasufli jihati shundaki, gohida g‘oyatda iste‘dodli insonlar ham "Ommaviy madaniyat" komiga tushib qolmoqdalar.

Targ‘ibotchilarining qutqusiga uchrab, uning tegirmoniga suv qo‘ymoqda. Masalan, rassom Salvador Dali-Leonardo da Vinchining "Mona Liza" ("Jakonda") asarini kulgi qilib, Mona Liza lablari ustiga muylov chizgan va "Mo‘yiovli Jakonda" asarini yaratgan. Tadqiqotchilarning fikricha, mana shunday "achchiq istehzoli, qora mazmunli kulgi"- "Ommaviy madaniyat" faoliyatining eng yetakchi belgilaridan biridir. "Ommaviy madaniyat" namoyondalari qora, zaharxanda, behayo kulguni "isyon ifodasi" deb bilishadi. "Nimaga qarshi isyon" degan savol

tugʻiladi. Agar "pop-madaniyat" dunyoga "ehson" etayotgan "pop-art" ("tasviriy sanʼat" desa ham boʻladi), "pop natijalariga qarab hukm yuritadigan boʻlsak, ular insoniyat yaratgan barcha qadriyatlarni isyonkorlik inkor etadi: yuksak madaniyatni, maʼnaviyatni, axloqni, yuksak orzu-maqсадlarni mensimaydi... ular uchun ezgulikning oʻzi yoʻq. Jumladan, sanʼat-alohida isteʼdodlar tomonidan yaratiladigan maʼnaviy boylik, moʻjiza ekanligi kabi ijodning oliy mezonlari "pop-madaniyat" tarafdorlarining oʻta darajada gʻashini keltiradi. Ularcha, hamma sanʼatkor boʻlishi mumkin. Hamma narsa sanat atalishi mumkin. "Pop-art" - "Ommaviy sanʼat shu xulosa manbaida vujudga kelgan".

Chunonchi "Ommaviy madaniyat" namoyondalaridan biri Karl Manning fikricha, atrof-borlikda, maishiy hayotda mavjud barcha narsalar (masalan, konserva bankalari, siniq tish choʻtkalari, mashina, vodoprovod kabilarning zanglagan boʻlaklari, turli suratlar, jurnal-gazeta qiyqimlari ham) hayot bagʻridan alohida ajratilib, ularga muayyan tartib berilib, odamlar nazariga tutilsa, bu oddiy chiqindilar arxeologik qazilmalar chogʻida topilgan qadimga yunonlar davriga xos osori atiqalarday oʻzgacha ahamiyat kasb etib, "sanʼat, madaniyat namunalari" qatoridan oʻrin olar emish.

"Pop-art"chilarning dasturiy qarashi shundayki, ular insonni emas, aksincha, narsalar va buyumlarni eʼzozlashadi; maʼnaviy dunyoni emas, maishiy-isteʼmolchilik his-tuygʻularini qadirlaydilar va ularni keng ommalashtirishga intilar. Ularning maʼnaviy pozitsiyasi maʼnaviyatni oʻldirish va "narsalarga qullik"ni ragʻbatlantirishdir. Amerikaning taniqli adibi R.Bredberi aytganidek, "Ommaviy madaniyat" maktabidan oʻtgan avlod uchun hayotning maʼnosi-avtomobil, televizor, muzlatkichga ega boʻlish. Agar televizor ikkita boʻlsa ularga shuncha yaxshi.

"Ommaviy madaniyat"da "Pop"(Ommaviy)-muzika alohida oʻrin tutadi. "Pop-muzika"ni "Yangi rok" belgilaydi. "Yangi rok", taʼbir joiz boʻlsa, kuchaytirilgan ritmik tuzilmali musiqadir. Yaʼni jazavali ritm, zarb, shovqin ushbu musiqaning qiyofasidir. Bu musiqa tinglashga, qalbdan huzurlanishga emas, balki vujud harakatiga, talvasa raqsga yoʻnaltirilgan. "Ommaviy madaniyat"dagi texnik-

ijro vositalari musiqa imkoniyatlarini nihoyatda toraytirmoqda, polifonizm-musiqiy sadolar boyligi va rang-barangligini yo‘qqa chiqarmoqda.

Umuman aytganda "pop-muzika" ijrochiligi ko‘ngilochar musiqa niqobi ositida Ommaviy vasvasali, shayton talvasali, badaxloq raqslar, ko‘pincha oxiri janjal, ur-yiqit, vahshiyliklarga borib yetadigan agressiv diskoteka shoularini uyushtirish bilan ajralib turadi. 1970 yilda Kaliforniyaning Altamone shahrida bo‘lgan musiqa festivalida o‘zini "pop-muzika" kiroli hisoblaydigan "Rolling Stoun" ("Aylanayotgan tosh" guruhi konserti ana shunday ur-yiqitlar bilan tugab, politsiya bu mojaro oqibatlarini bilan uzoq muddat shug‘ullanishiga to‘g‘ri kelgan edi "Pop-muzika" namoyandalari o‘z "Ommaviy"liklarini ta’kidlash uchun sahnadagi hatti-harakatlari va kiyim-liboslari namoyishida ham odob-axloq, jamiyatga ehtirom tuyg‘ularini rad etib-asosan ko‘cha, olomonchilik qonun-qoidalariga amal qiladilar. Va o‘zlarining kulguli darajada ajralib turadigan shunday raftorlaridan faxrlanadilar. Afsuslanarli tomoni shundaki, bunday holatlarni "pop muzika")chilar san’atdagi demokratizmning, xalqchilikning tantanasi, deb bilishadi.

Aslida ularning sahnada o‘zlarini bezorilarday tutishi san’atni va san’atkorlikni yerga uradi. Bu esa hayron qolarli emas: chunki asl san’atni yerga urish- "Ommaviy madaniyat"ning dasturiy, ya’ni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan vazifalaridan biridir.

"Pop-muzika" namoyandalari ijro etadigan qo‘shiq matnlari esa, avvalo, she’rning oddiy talablariga javob bermaydi yoki ular ko‘proq ko‘chada mavjud behayo, jargon iboralarga-qadriyatlarni, insoniy ezguliklarini kinoya, mazax qiladigan so‘zlarga asoslangan. Xullas, erkinlik, demokratiya "na’munalari" deb tavsiya etilayotgan "pop-muzika" matnlari bilan haqiqiy she’riyat hamda asl xalqchil did, sog‘lom ruhiyat, ma’viyat o‘rtasida yer bilan osmoncha farq bor.

1964 yilda AQShda T.Sazern va M.Xoffenberg degan ikki muallif hamkorlikda yozishgan "Kendi ("Asal qiz") nomli romannini nashrdan chiqarishdi. Keyinchalik bu kitob qayta va qayta, katta miqdorlarda amerikalik kitobxonlarga taqdim etildi. Ushbu roman asosida yaratilgan kinofilm

kinotomosha bozorida keng tarqaldi. "Kendi" qahramoni, "Asal qiz" deb ta'riflagan juvon duch kelgan odam bilan to'shakda aysh -ishrat qilishdan charchamaydi. Uning ishqibozlari - turli diniy va siyosiy qarashli shaxslardir. "Kendi" romani Amerika adabiyotida shakllangan va keng tarqalgan romantik tabiatli, shirin va go'zal o'y-xayollarga beriluvchan qizlar timsolini keskin hajv qiladi. Ularning ustidan kuladi. Badiiy mahorat talablaridan ancha pastda turadigan, ammo "ko'ngilochar"lik mavzui muxlislarini oshufta etgan bu kitobda AQSH adabiyotshunoslari: "Madaniy tanazzulda oldinga qarab qo'yilgan ulkan qadam", deya kinoya bilan baho berishdi.

Xuddi shu kitob bilan ayni bir vaqtda AQShda Jon Rechi ismli yozuvchining "Tungi shahar" nomli romani chop etildi. Kitob sahifalarida shahardagi jinoyatlar bazmiga aylanadi, inson shaxsi va uning qadri esa mis chaqaga ham arzimaydi. Bu roman "tubanlik va qabohat-inson tabiatini belgilovchi haqiqatdir", degan g'oyani tasdiqlash uchun bitilgan.

Biz nega bu ikki romanni esladik? Aynan, ana shu kitoblar va ular asosida yaratilgan filmlar-g'arbdagi "Ommaviy madaniyat"ning adabiyotdagi, televideniya va kinodagi yo'lini belgilab berdi. Intim munosbatalar, shahvatparastlik, zo'ravonlik, xudbinlik, "Kim kuchli bo'lsa-o'sha haq" degan changalzorlar qonunini poetiklashtirish AQSH va Yevropa "Ommaviy madaniyat" ida mana shunday asarlar ta'sirida keng ommalashadi. Agar ayrim G'arb davlatlarida erkak bilan erkak, ayol bilan ayol o'rtasida nikoh-hayratlanarli hodisa bo'lmay qolayotganligi nazarda tutilsa, "Ommaviy madaniyat" targ'ib etayotgan ma'naviy tubanliklar, behayolliklar, qabohatlar naqadar chuqurlashib ketganligini tasavvur etish qiyin emas.

Shu o'rinda bir izoh; "pop (Ommaviy) madaniyat"ning namoyandalari va targ'ibotchilari "pop-adabiyot"ni unchalik tan olishmaydi. Ularning fikricha "adabiyot-bu so'z san'ati" degani. "Pop (Ommaviy) madaniyat" esa san'atga, jumladan, "so'z san'atiga qarshi. Aniqrog'i, "san'atsiz so'z", ya'ni yovvoyi, dag'al, tarbiya, axloqni xush ko'rmaydigan ko'cha so'zlari"ga moyil. Biroq, ular xoxlamaydimi-yo'qmi, aynan G'arb olamida bemaza qovunning urug'iday

ko'payib, tomir otayotgan "Ommaviy madaniyat" ta'sirida "Pop (Ommaviy) adabiyot" ham tug'ilyapti. Va bu "adabiyot" "Ommaviy madaniyat"ning tuban g'oyalari targ'ibotiga xizmat qilmoqda.

"Ommaviy madaniyat" ko'pdan-ko'p shakllarda o'zini namoyon etadi. Kitch (zarra badiiy-estetik qimmatga ega bo'lmagan narsa va buyumlarga yuksak andoza tusini berish), komiks (tagiga qisqa matn yoki luqmalar bitilgan behayo matbaa-rasm mahsulotlari), starizm (sub'ektiv ehtirolarga berilgan holda, estrada artistlari, aktyorlar, sportchilar, telediktorlarni ilohiylashtirish), xepining (avvaldan rejalashtirilmagan, nogahonda uyushtiriladigan "keskin" tomoshalar, masalan, royal, pianino yoki avtomobillarni urib ayujag'ini chiqarish yohud o't qo'yish orqali vahshiyona, Ommaviy "ko'ngil ochish"lar uyushtirish) "Ommaviy madaniyat"ning ayrim ko'rinishlaridir.

Yuqorida biz G'arbda "Ommaviy madaniyat"ning tarixi, tztilshp manbalari to'g'risida so'zladik. Hozir-chi? Hozirga kelib esa bu tamoyilar yanada g'ovlab, tomir otyapti. Masalan, "pop-muzika"ga xos o'sha ritmik "bit" (zarb, qo'shiq niqobidagi alahsirash, valdirashga yaqin didsiz "repp"lar ta'siri dunyo miqiyosida tarqalib, milliy mumtoz va xalq musiqa san'atidan odamzotni uzoqlashirmoqda. G'arb davlatlarining ayrimlari "Ommaviy madaniyat" tarqatayotgan "pornografiya" (sharmsizlik, hayosizlik) hamda sadizm (zo'ravonlik) targ'iboti yo'lidagi g'ovlar, qarangki, sud qarorlari asosida, birin-ketin olib tashlanyapti. Hatto AQSH maktablarida "Yangi rok musiqalari o'quv dasturlariga kiritilgan...

"Ommaviy madaniyat" maktabining "natijalari" esa yaqqol ko'rinish turibdi. Masalan, AQShning ayrim maktablarida sodir etilayotgan portlashlar, bolalarning savdoyi, vos-vos kimsalar qo'lida qurbon bo'layotgani, yoshlar fe'lida kuchayib borayotgan agressivlik jahon Ommaviy-axborot vositalari orqali hammaga ma'lum. "Ekkaningni o'rasan" deb shunga aytsalar kerak.

Afsuski, yer yuzidagi axborot almashinuvi mislsiz tezlashgan hozirgi globalizm sharoitida, g'arbdagi "markazlar" bundan foydalanib, boshqa davlatlar va xalqlar o'rtasida G'arb hayoti "jozibalari"ni, jumladan, "Ommaviy madaniyat"

ta'sirini "erkinlik shabadalari" tarzida imkon qadar keng yoyishga yeng shimarib harakat qilmoqdalar.

AQSh ning taniqli siyosatshunosi Zbignev Bjezinskiy shunday yozadi: "Madaniyat sohasida Amerika jahon yoshlari orasida alohida jozibadorligi bilan ajralib turadi. Bu esa AQShga jahonning hech bir davlatiga nasib qilmagan siyosiy ta'sirini ta'minlaydi. Ayniqsa, Amerikaning televizion dasturlari va filmlari jahon bozorining to'rtidan uch qismini egallaydi. Uning ommabop musiqasi, amerikaliklarning qiziqishlari, ovqatlanishlaridagi odatlari va hatto, kiyinishlariga butun dunyoda taqlid qiladilar". AQSH siyosati va mafkurasi namoyandalari o'z mamlakatlari manfaati, siyosati va turmush tarzini faqat kitoblar, publitsistik chiqishlar orqali targ'ib etish bilan cheklanib qolayotganlari yo'q. Dunyo xalqlarini "g'arblashtirish"ga urinishlar quroli sifatida, masalan, "Ommaviy madaniyat" vositalaridan, turli-tuman axborot tarqatish (reklama, matubot, kino, televideniya kabi) yo'llaridan zo'r berib foydalanilmoqda.¹

Albatta, xalqimiz, jumladan: yosh avlod g'arb-fan-texnikasi, madaniyati, adabiyotu san'atining ilg'or jihatlarini inkor etmaydi. Biroq g'arbdagi taraqqiyparvar ziyolilarning o'z "g'arbning muammosi" sifatida baholayotgan "Ommaviy madaniyat" ning ma'naviy-axloqiy tubanliklarini yoshlarimiz qancha tez anglasa, shuncha yaxshi.

To'g'ri, biz demokratik davrida yashayapmiz. Jamiyatimizda qiziqish va mayllarga hurmat bilan qaraladi. Ammo xatarli qiziqish va mayllardan davlat va jamiyat o'zini himoya qilishi lozim. Buning uchun esa, eng avvalo reklama va Ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi davlatimiz qonunlarining talablari qat'iy bajarilishi kerak. Ya'ni "reklama"chilar va jurnalistlar, davlatimiz, jamiyatimiz xavfsizligi (jumladan, xalqni, yoshlarni ma'naviy aynitishga olib keladigan holatlarga) yo'l qo'ymasliklari kerak. Afsuski, bunday xolatlar yuz beryapti.

Qolaversa, dunyoqarash tarbiyasi imkoniyatlarini rivojlantirishimiz lozim. Masalan, "Ogohlik" iborasining ma'nolarini bugungi zamon sharoitidan kelib chiqib, ancha keng miqiyosida tushunishimizga to'g'ri keladi. Ya'ni bugungi

¹ Mavulov A. Madaniyat va tafakkur o'zgarishlari. T. 2004.

ogohlik xalqimiz, ayniqsa, yoshlar dilini, ruhiyatini, aql idroki va umuman ma'naviyatini diniy-aqidaparastlik, jaholatparastliklar xataridan tashqari, ayni paytda, jahonda yuz berayotgan siyosiy, mafkuraviy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va estetik manfaatlar yo'nalishidagi oshkora va xufya kurashlarning keng miqiyosidagi xatarli jihatlaridan, jumladan, "Ommaviy madaniyat"ning yemiruvchi ta'siridan muhofaza qilshini ham o'z ichiga oladi. Iloji bo'lsa, mamlakatimiz ta'lim tizimining-maktablardan tortib to oliy ta'lim muassasalarigacha bo'lgan barcha bosqichlari o'quv dasturlariga ana shu keng, yuksak malakali ilg'or zamonaviy, ma'no-mazmunli, maxsus "Ogohlik" darslarini kiritish maqsadga muvofiqdir. Bu o'ylab ko'riladigan muhim va jiddiy masaladir.

II.BOB. OMMAVIY JAMIYATDA MODDIY VA MA'NAVIY MADANIYATLARNING O'ZARO TA'SIRI

2.1. Moddiy va ma'naviy madaniyatlarning o'zaro aloqalari

Madaniy jarayonning o'ziga xosligi shundaki, madaniyat xodisasi har doim shakl va mazmun, va munosabat, narsaning mavjudligi va uning ramziy mazmuni uyg'unligiga ega bo'ladi. Moddiy madaniyat va ma'naviy madaniyat-Madaniyatning asosiy ikki sohasi bo'lib, bir-biri bilan o'zaro aloqada, o'zaro ta'sirda va bir-birini taqoza qilgan holda rivojlanadi. Moddiy madaniyat har doim ma'lum bir madaniyatning timsoli hisoblanadi, o'z navbatda ma'naviy madaniyat ham qaysidir narsa, belgi, tasvir, ramzlarda moddiy uyg'unlikda mujassam bo'ladi.

Moddiy madaniyatning ma'naviyatdan tarixan ayrilg'i faqat insoniyat taraqqiyotining boshlang'ich davrlarigagina xosdir. Jamiyatda ma'naviy faoliyat maxsus sohaga aylangach ahloqiy mezonlar, din, san'at, xuquq, siyosat, fan shakllanib ma'lum doiradagi kishilar bu soha bilan shug'illana boshladi.

Uzoq vaqtlar fanda madaniyat deganda faqat ma'naviy madaniyat nazarda tutildi. Negaki, borliqni xaqiqat, yaxshilik, go'zallik belgilaydi deb hisoblashgan, shuning uchun birinchi o'rinda ilmiy tadqiqotlarning asosi fan, ahloq, nafosat bo'lib keldi. Natijada jamiyatning moddiy hayotini, uning iqtisodiyotini o'rganishga e'tibor berilmadi. Moddiy madaniyat tadqiqot uchun qiziqarsiz hisoblanadi.

Industrial jamiyatning vujudga kelishi, texnikaviy taraqqiyoti va texnologiyalarini tezda almashishi madaniyatshunoslikni insoniyatni barcha moddiy madaniyatini o'rganishga majbur qildi.

Kishilarning amaliy qayta o'zgartiruvchilik faoliyati, ularni ijtimoiy ishlab chiqarish va takroriy ishlab chiqarish bilan bog'liqligi moddiy madaniyatni o'ziga xos sohalarga bo'linishi madaniyatshunoslikda muayyan tadqiqotlarda zarurat tug'dirdi.

Moddiy madaniyatning birinchi katta sohasi bu mehnat qurollari ishlab chiqarishning barcha vositalari, turar joylar, aloqa vositalari, texnika qurilmalari. Xullas, suniy sharoitda yaratilgan narsalarning barchasi, moddiy madaniyatning bu qismi ishlab chiqarish texnika madaniyati yoki jamiyat hayotining moddiy texnika asosi deb ataladi. Ishlab chiqaruvchi texnika madaniyatning maxsus qismini ishlab chiqarish texnologiyalari, mehnat faolyatida ishtirok etuvchilarning ijodiy qo‘llami, ularning texnik bilimi, ishlab chiqarish madaniyati, jismoniy va ruhiy imkoniyatlari hisoblanadi.

Moddiy madaniyatning ikkinchi soxasi ijtimoiy hayotni, uning barcha tarmoqlarining meyoriy harakatini ta‘minlovchi ko‘p ijtimoiy institutlar, tashkilot va muassasalar faoliyati bilan bog‘liq. Bu turdagi xokimiyat tuzilmalari va unga munosib boshqaruv shakllari, ijtimoiy tashkilotlar, ta‘lim, yosh avlodni tarbiyalash va ta‘lim berish, sog‘liqni saqlash va dam olish, ko‘ngilni olish muassasalari tizimi kabi barcha ijtimoiy institutlar amalda jamiyat madaniyatini saqlaydi, o‘zgartiradi va qayta shakllantiradi.¹

Moddiy madaniyatning uchinchi sohasi (ishlab chiqaruvchi va qayta ishlab chiqaruvchi) insonning o‘zi hisoblanadi. Moddiy madaniyatning busohasi nafaqat insoniyatning biomavjudodlik muomalalarini tadg‘iq qilmasdan, balki avlodlarning o‘zaro munosabatlari muomillarini tahlil qiladi.

Inson ulg‘ayishi va jamoaga mansubligi mezonidan boshqa jamiyat madaniyati a‘zosi sifatida shakllanishi mumkin. Ikki xil, ba‘zan insonni ikki turdan ham ko‘proq madaniyatga mansubligi uni ko‘p tamonlama madaniy holatga mmansub qiladi. Ammo bunda ma‘lum xavf ham yashirin bo‘ladi. Ya‘ni ulg‘ayuvchi avlod jamiyatga aralashuvi jarayonida begona madaniyatning aralashuvi yoshlarni o‘zning madaniyat manbaidan ayrilishiga, o‘z etika an‘analarini tushunmasligiga olib keladi. O‘z milliy madaniyatdan mahrum kishi manqurtga aylanadi va har qanday madaniyatga ham befarq munosabatda bo‘ladi.

¹Soatov G‘. Madaniyatshunoslik asoslari. T.2008.61-b

Shuning uchun meros madaniyatning uzluksiz an'anaviy yangilash jarayonini ta'minlash o'ta muhim.

Moddiy madaniyatning uchinchi sohasi doirasida inson hayot faoliyatining gineti(irsiy), jismoniy (somatik), tabiiy biologik xususiyatlari haqida, jamiyatda yuzaga keladigan va tarixiy taraqqiyotning o'ziga xos xususiyatlari aks etuvchi madaniy an'analar va sog'lom odatlarga to'g'ri keladigan insonning tartibli ovqatlanish va turmsh tarzi haqidagi bilimlar majmui bo'lgan inson ekalogiyasi muammolari ham mansub.

Ma'naviy madaniyat ancha ilgari o'rganila boshlagan. Insoniyat tarixining boshlaridan kishilar ma'naviy madaniyatni belgilashga, uning shakllanish sabablarini aniqlashga, ma'naviy boylik ijodkori va yaratuvchilari qanaqangi sifatlarga ega bo'lishlari kerakligini va ma'naviy ijodkorlar jarayonini tushuntirishga uringanlar. Ilgari mavjud bo'lmagan madaniyat hodisasini vujudga keltirishga xizmat qiluvchi ijodiy kuchlar xayolat fantastiaksi tadqiqotlarga katta e'tibor berildi. Olamni ma'naviy o'rganish mavjudlikning insoniy usuli hisoblangan maxsus ideyal tamonidir, insondagi barcha qobiliyat tabiatan mavjud bo'lib, uning shakllanishi insonning paydo bo'lish davridan boshlangan. Insondagi ajdodlardan qolgan yovvoyilik xususiyatlari tabiat bilan doimiy o'zaro hamkorlikda uni o'zlashtirish davomida yo'qolib, bilimi rivojlanib bordi.

Undagi jismoniy va ruhiy jihatlar takomillashib, intellektual va shaxsiy imkoniyatlar kuchayib bordi. Inson jismoniy, fikriy va his qiluvchi mavjudod sifatidagi dastlabki davridanoq o'ziga xos dunyosini yarata boshladi: Moddiy va ideal dunyosi taraqqiyotning har bir davrida fikrlash va his qilish tarzining maxsus aqliy tasavvur tizimi to'plandi. Bunda barcha umuminsoniy madaniyat singari turli xalqlar tomonidan yaratilgan mustaqil madaniyatlar manbai ham mavjud. Insonning ideal dunyosi-bu uzluksiz harakat shaklining benihoya rang-barangligi, murkkab meyor, munosabatlar darajasiga ega bo'lgan obrazlar rivoji va vazifasi, tiplarning voqelik bilan aloqasidir.

Ma'naviy faoliyatning turli shakllari mavjud, biroq, ularning barchasi ilk butunlik elementlari bo'lib qoladi. Fan, din, san'at, falsafa, ahloq, huquq, siyosat, mafkura, milliy o'zlik ma'naviy madaniyatning aniq shakllari hisoblanadi. Alohida shakldagi ma'naviyatning xususiyati maxsus tuzilish ma'lum vazifalar majmuidan iborat, har birining o'ziga xosligida ifodalanadi. Ma'naviy madaniyatning ayrim shakllari (fan, san'at) "chegaralanganlikda" farqlanadi, ya'ni ma'naviy madaniyatning aniq sohasiga aylanadi, boshqa shakllarda (ahloqiy estetik) faoliyatning barcha turlari qorishib ketadi. G. Malikovskiy takidlashicha madaniyatdagi xayratlanarli funksional haqqoniylik shakli, dunyoda hech bir ortiqcha, shunchaki narsa yo'q, barcha madaniyat hodisasi o'zaro foydali aloqadorlikda kechadi. Tadqiqotchilar madaniyatning turli funksiyalarini ko'rsatadilar. Xususan faylasuf E.V.Saqolov madaniyatni ikki xil funktsiyaga ajratadi: Butun bir jamiyat munosabati bo'yicha funktsiyasi, ikkinchi bevosita shaxs bilan aloqadorlik funktsiyasi.

E.V.Saqolov madaniyatning asosiy funktsiyasini quyidagicha belgilaydi: - olamni o'zlashtirish va qayta o'zgartirish; bunda u mavjud narsalarni jismoniy talablarni, shuningdek ijoddagi hayotiy qonunlar bilan qondirish zarurati bilan bog'liq.

Moddiy va ma'naviy madaniyatlarni bir-biridan ajralgan holda tasavvur qilish mumkin emas. Chunki, moddiy madaniyat ham, ma'naviy madaniyat ham insoniy faoliyat natijasidir.¹ Lekin, har qanday insoniy faoliyat ham ma'naviy boylik bo'la olmaydi. Shu sababdan ham madaniyat: moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'linadi.

Moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish yagona ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining ikki tomoni hisoblanib, bunda moddiy ishlab chiqarish belgilovchi rol o'ynaydi. Chunki, moddiy ne'matlar ishlab chiqarish muayyan jamiyatning barcha tomonlarini shu jumladan ma'naviy ishlab chiqarish jarayonini ham belgilab beradi. Aslida ma'naviy ishlab chiqarish – bu ijtimoiy ong

¹ Abdullayev M. Madaniyatshunoslik asoslari. Farg'ona 1997. 61-b

shakllarini tashkil etuvchi davlat, siyosat, mafkura, huquq, axloq, fan, san'at, diniy e'tiqod va boshqalarni yaratishdir.

Moddiy va ma'naviy madaniyatlar nafaqat o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lsada ularni bir-biridan ajratib turuvchi farqli jihatlari ham bor. Birinchidan, ma'naviy madaniyatning ikki shaklda: predmetlar va faoliyatning mahsuli sifatida mavjud bo'lishida ko'zga tashlanadi. Kitoblar, tasviriy va haykaltaroshlik san'ati asarlari, me'moriy yodgorliklar, kinofilmlar televideniya va boshqalar ma'naviy madaniyatning moddiy, ya'ni predmet shaklidagi ko'rinishlaridir. Sozanda, xonanda, aktyor, suxandon, pedagog va targ'ibotchilarning ijro va mahoratlari ma'naviy faoliyatning mahsullari hisoblanadi. Moddiy madaniy boyliklar vaqt o'tishi bilan eskiradi, vayron bo'ladi, buziladi, nom-nishonsiz yo'q bo'lib ketishi mumkin. Ma'naviy madaniy boyliklar esa asrlar o'tsa-da keyingi avlodlar ongi va tasavvurida, milliy qadriyatlarida saqlanib qoladi. Yoki ulardagi asosiy mazmun, asosiy g'oyalar, tamoyillar, me'yorlar avlodlardan avlodlarga o'tib keladi, abadiy yashab qoladi. Ular har bir tarixiy- madaniy jarayonda ijtimoiy taraqqiyotga yordam beradi.

Ikkinchidan, insonning moddiy ehtiyojlari oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va boshqalarga bo'lgan ehtiyojlari ma'lum darajada cheklangan bo'ladi. Ma'naviy ehtiyojlar, ya'ni bilim olish, san'at asarlarini tomosha qilish yoki tinglash, fan sohasini o'rganish, kishilar bilan muloqotda bo'lish, urf-odatlar, marosimlarni tashkil etish yoki unda ishtiroki hamda aqliy faoliyatning boshqa turlariga bo'lgan ehtiyoj doimo va to'xtovsiz ravishda oshib boradi.

Uchinchidan, moddiy qadriyatlar(moddiy madaniyat) ko'proq iste'molga mo'ljallangan bo'lsa, ma'naviy qadriyatlar(ma'naviy madaniyat) inson shaxsini shakllantirishga, uni kamol toptirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, moddiy madaniyatning turli elementlari aniq ehtiyojlarni qondirishga mo'ljallangan. Masalan, mehnat qurollari faqat ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishga, oziq-ovqat faqat tirik organizmning moddalar almashinuvi ehtiyojini, kiyim-kechak faqat tabiatning ta'siridan saqlanishga,

shuningdek, transport va aloqa vositalarning, uy-ro'zg'or buyumlarining ham aniq bir vazifalari mavjud. Ma'naviy madaniyatning har bir elementi ko'p qirrali xususiyatga ega bo'ladi, ya'ni o'zida boshqa elementlarning vazifalarini birlashtiradi. Masalan, san'atni olib qarasak, u nafaqat badiiy-estetik, balki siyosiy, axloqiy, mafkuraviy, diniy mazmunga ham ega bo'ladi. Ma'naviy qadriyatlarda ham siyosiy, mafkuraviy, huquqiy, axloqiy, falsafiy, estetik, diniy mazmun birlashib keladi.¹

Har qanday jamiyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi, boy bilim olami bo'lib, u insonni qayerda yashashi va harakat qilishini, umuman, dunyodagi va jamiyatdagi o'rnini belgilashga yordam beradi. Madaniy qadriyatlar inson uchun o'ta shaxsiy mohiyat va mazmun kasb etib, inson u orqali boshqa kishilar bilan, butun jamiyat bilan munosabat o'rnatadi. Qadriyatlar jamiyatga manzur bo'luvchi ahloq shakllarini yaratishda va anglashda insonga yordam beradi. Taxsinga loyiq joyi shundaki, insonda boshqalarga nisbatan munozarali emas, balki muloyim munosabat shakllanadi. Munozaralar tug'ilgan hollarda jamiyatni mustahkamlashga munosib bo'lgan bartaraf qilishning qulay usullari topiladi.

Qadriyat tushunchasi madaniyatshunoslikning asosiy tushunchalaridan. Ayrim tadqiqotchilar uni davrning ehtiyojini belgilaydi, ya'ni, tarixiy xususiyat kasb etadi deb hisoblashadi. Boshqa bir tadqiqotchi Rikertaksincha qadriyat, doimiy universal xususiyatga ega deydi. Nihoyat, T. Parsonis qadriyatni-meyoriy andoza deb ataydi. Mazkur turli xil, qarama-qarshi fikrlardan qadriyatning ma'nosi ko'p qirrali ekanligi anglanadi.

Qadriyat kishilar hayotida o'ta ahamiyatli xodisadir. Uni madaniyat sohalari ro'yobga chiqargan hodisa sifatida bog'liqlikda anglash mumkin. Moddiy nuqtai nazardan qadriyat xususiy (ya'ni oddiy his qilish organi)-hayotiy, maishiy, texnik qoniqish, qadriyat va boshqa ma'naviy-ilmiy, ahloqiy estetik, diniy va boshqalarga bo'linadi. Ayrim qadriyatlari (xo'jalik, texnik, siyosiy) tarixiy xususiyat kasb etib, ya'ni madaniyat, davr o'zgarishi bilan ular ham o'zgarib

¹ Soatov G` Madaniyatshunoslik asoslari T. 2008 66-bet

turishini batafsilroq o'rganish chog'ida aniqlash qiyin emas, boshqa qadriyatlar esa universal xususiyatga ega.

Yuqorida takidlanganidek qadriyat ijtimoiy faolyatni tartibga solib, individlar, guruhlar va jamiyatning muhim yutuqlariga erishuvini belgilaydi. Ijtimoiy qo'llamdagi mazmun darajasi bo'yicha qadriyat uzviylikka ega. Qadriyatning dastlabki darajasi oddiylari orasida ajratgan aniq narsalar, holatlar, harakatlarning afzalliklari bilan bog'liq. Ikkinchi darajasi esa ma'lum individga yaqin bo'lgan ijtimoiy guruhlar qiziqishiga mos keluvchi obrazlar harakati yoki faolliyatning tanlanishi bilan bog'liq. Uchinchi daraja bu eng yuksak umuminsoniy maqsadlarga tanlanish bo'lib, bunda ezgulik, xaqiqat, go'zallik, adolat, tartib, boylikka qarama-qarshi yovuzlik, yolg'on, xunuklik, betartiblik, qashshoqlik mujassamligida namayon bo'ladi yoki bu taqdir bilan bog'liq o'ta yuksak tanlash hisoblanadi.

Qadriyatlarning iyrarxiyaga asoslangan murakkab tizimida individdagi singari turli toifadagi umumiylikning ham o'ziga xosligi asosiy takroriy va chetdagi, ustunlik holatidagi tarzlarga ajratish mumkin. Qadriyatlar ro'yxati har bir jamiyatning miliy va o'ziga xos sivilizatsiyasi bilan bog'liq holda keskin farqlanadi. Hamma davrlarda barcha xalqlarda eng yuksak qadriyat ezgulik, hayot, mehnat, sevgi, haqiqat, baxt singari mezonlarda ifodalangan.¹

¹Boboyev X va boshqalar. Madaniyatshunoslik. T. 2001.

2.2. Axborot texnologiyalari va boshqa zamonaviy texnologiyalarining moddiy va ma'naviy madaniyatga ta'siri

Axborotga muayyan voqea-hodisalar to'g'risidagi xabar yoki ma'lumot, ularni tushutirish, tushunish va idrok etishda qadim zamonlardan buyon qo'llanib kelinayotgan, kibernetika va informatikaning taraqqiyoti tufayli keyingi vaqtda yangi, keng ma'no kasb etayotgan tushuncha sifatida ta'rif beriladi. O'tgan asrning oxiri va hozirga asr boshida axborot vositalarining jadal rivojlanishi XXI asrning "Axborot asri" deb atalishiga sabab bo'ldi. Bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalari, axborotlashgan jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda axborot asosida ta'lim-tarbiya jarayoni olib borilmoqda, ijtimoiy hayot samarali boshqarilmoqda. Hozirgi kunda hayotning biror-bir sohasini axborotsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Axborotlar banki, axborot texnologiyalari kishilik faoliyatining ajralmas qismiga aylanmoqda. Axborotlarni aniq maqsadda yig'ish, saqlash, tizimlarga ajratish va ulardan Ommaviy tarzda foydalanishda texnik, dasturiy, algoritmik ishlar va ularning tashkiliy vositalari beqiyos ahamiyatga ega. Axborotlashtirilgan jamiyatning har bir bo'g'inida axborotlar bankiga murojaat qilinadi va bu asosda zamonaviy ta'lim texnologiyalari yaratiladi va ta'lim-tarbiya jarayonlarini optimal boshqarish imkoniyati vujudga keladi.¹

Zamonaviy axborot texnologiyalari intellektual hayotning jadalligini ko'p marotaba oshirishga qodir. Masalan masofaning ahamiyati qolmasligi – zamonaviy axborot texnologiyalari bizga konferensiya holatini yaratib berishi mumkin. Ya'ni yer kurrasining turli burchaklaridagi bir qancha insonlar bir zalda yig'ilgandek bo'ladilar. Barchasi bir yerda va hozir bo'ladilar. Shuningdek vaqt tushunchasiga ham ta'sirini ko'rsatmoqda. Katta jurnallarda nashr qilish vaqti oylarga cho'zilsa, zamonaviy axborot texnologiyalardan biri bo'lmish internetda g'oyalar va matnlar yuzaga kelgandanoq nashr etiladi. Birgina internetning o'zida kutubxona, matbuot, radio va televideniya imkoniyatlari ham mujassam etmoqda.

¹ Ma'naviyat asosiy tushunchalar iyuxli lug'ati. -T.: G'.G'ulom nomidagi NMIU. 2009.-B.

Turli elektron texnologiyalarning jadal rivoji ijodiy faoliyatda ham namoyon bo'lib bormoqda. Masalan rassomchilik, amaliy bezak va kino san'atida tasvir yaratish va balki matnli ma'lumotlardan ham bevosita foydalanishda turlicha dasturlarni qo'llaydilar. Ko'rib turganimizdek ijodiy jarayon bir necha xil axborot uzatish usullarining uyg'unlashib ketishiga olib kelmoqda. Moddiy va ma'naviy madaniyat namunalari yanada tezroq va kengroq havola etilmoqda.

Lekin axborot tarqatish vositalari, kommunikatsiya tarmoqlari globallashayotgan bugungi kunda u yanada qudratli kuch, qurolga aylanmoqda. Jarayonlarni boshqarish uchun, avvalo, tezkor va mavjud vaziyat to'g'risida to'la tasavvur beradigan axborot zarur.

Bugungi kunda iqtisodiyot va siyosat barobarida axborot ham globallashmoqda, to'g'rirog'i, axborotning globallashuvi iqtisodiy va siyosiy integratsiya jarayonlariga sharoit yaratib bermoqda. Ba'zan o'zimiz yashab turgan mintaqadagi jarayonlarga to'g'ri baho berish uchun ham tashqi axborotga, dunyoning boshqa mintaqalarida ro'y berayotgan voqealar tahliliga ehtiyoj sezamiz.

Ommaviy axborot vositalarining yana bir muhim jihati mavjud. Bu jihat – axborot terroriga, mafkuraviy tahdidlarga munosib javob berish bilan bog'liq. Oxirgi paytlarda informatsion tahdid va xurujlarning tez-tez uyushtirilayotganligi qurolning «axborot» deb atalmish yangi turi yanada qudratliroq bo'lib borayotganligidan dalolat beradi. Axborot qurolining qo'poruvchilik kuchi, keltiradigan talofatlari har qanday Ommaviy qirg'in qurolinikidan kam emas. Chunki, bu qurol yordamida ongga berilgan zarbalar kishini adashtiradi, uni o'z va yurt manfaatlariga zid harakat qilishga undaydi va demak, insonni boshqarish, uning ustidan hukmronlik qilish imkonini beradi.

Biz ushbu holatni ham bimalol axborot xuruji, tahdidi, urushi deb baholay olamiz. Aslida, axborot maqsadga erishishning eng arzon vositasi ham sanaladi. Axborot urushlari biz bilgan urushlardan qator jihatlari bilan ajralib turadi. Birinchidan, axborot urushlari ancha kamxarj – qo'shin saqlashni, qurol-yarog' sotib olishni talab qilmaydi. AQShning sobiq Prezidenti J. Karter ham:

«Targʻibotga sarflangan 1 dollar qurollanishga sarflangan 10 dollardan samaraliroq», deb bekorga taʼkidlamagan. Ikkinchidan, axborot urushlari hech qanday chegaralarni tan olmaydi. Internet, sunʼiy yoʻldosh orqali aloqa, Ommaviy axborot vositalari hukmronlik qilayotgan bugungi dunyoda axborotni bojxona koʻrigidan oʻtkazib, saragini-sarakka, puchagini-puchakka ajratishning iloji yoʻq. Biroq, eng tashvishlisi, bu urushda raqibni jismonan yoʻq qilish emas, uni oʻziga maʼnan boʻysundirish maqsadi koʻzlanadi.

Bozorning oddiy haqiqati shundaki, har kim topganini savdoga chiqaradi. Tovarni sifati, turi va foydasi jihatidan tanlash xaridorning ixtiyorida. Ana shu qonuniyat nuqtai nazaridan qaraganda jahon axborot bozorida bizning manfaatlarimizga mutlaqo zid, milliy hususiyatlarimiz, anʼana, qadriyatlarimizni mensimaydigan axborotlar shiddat bilan hayotimizga kirib kelmoqda. Bu oʻz-oʻzidan axborot sohasidagi hurujlardan himoyalanih, binobarin, milliy xavfsizlikni taʼminlash muammosini kun tartibiga qoʻymoqda.

Axborot xurujlarining quyidagi turlari mavjud:

- yolgʻon axborot tarqatish;
- milliy-maʼnaviy qadriyatlarni yemirib tashlash;
- yetti yot begona maʼnaviy qadriyatlarni singdirish;
- xalqning tarixiy xotirasini buzish va oʻzgartirish;
- kiberterrorizm.

Kiberterrorizm oʻz navbatida virus tarqatish, internetda noqonuniy boylik orttirish (kiberjinoyat), kiber-manyakchilik, turli boʻhton va uydirmalar tarqatish orqali biror mamlakat yoki shaxsni obroʻsizlantirish singari turlarga boʻlinadi.

Bu borada "erkin axborot almashuvi" nazariyasiining asoschilaridan biri xisoblangan MRB sobiq direktori A.F.Dallesning fikrini keltirish mumkin. "Agar menga, - deb yozadi A.F.Dalles, - tashqi siyosatning faqatgina bitta tamoyilini tanlab olish huquqi berilganda, men axborotning erkin oqimi prinsipini tanlagan boʻlur edim".¹ Gʻarbda "axborotning erkin oqimi" deyilganida cheksiz mikdordagi axborotni bir taraflama uzatish, bunda axborot mazmunining hech kanday

¹ A. Dalles. Iskustvo razvedki. M., «Mejdunarodniye otnosheniya», 1992, S. 127.

meyorlar bilan cheklanmasliga va mazkur axborot u yetkazib berayotgan hududdagi davlat tomonidan nazorat qilinmasligi tushuniladi.

Axborot turli ijtimoiy qatlamlarga har xil ta'sir qilishi barobarida uni iste'mol qilish amaliyoti turli guruhlarda keskin farq qilishi mumkin. Bu, eng avvalo, axborot manbalari miqdori o'rtasidagi farqda namoyon bo'ladi. Masalan, ayrim odamlarda axborot manbai minimal (televideniye, radio), ba'zilarida eng keng (gazeta, jurnal, kitob, yangi kommunikatsiyalar tizimi) bo'lishi mumkin. Mutaxassislar fikriga ko'ra, hozirgi davr jamiyatida aynan axborotni olish, unga yo'l topish sohasida keskin bo'linish, tabaqalashuv sodir bo'lmoqda.

Yoshlar o'zining xarakatchanligi, yangiliklarga intiluvchanligi hamda bo'sh vaqt resursiga egaligi tufayli yuqori darajada kommunikativ faollik ko'rsatadilar. Boshqa guruhlarda esa nisbatan passivlik kuzatiladi. Ularga xos bunday befarqlik, loqaydlik, dunyo bexabarlik hususiyatlari salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Bu birinchi guruh uchun tobora faollashayotgan agressiv, tajovuzkor siyosiy ta'sirga berilib ketish xavfining mavjudligida, ikkinchi guruhning esa, pozitiv mazmunga ega axborotlardan tashqarida qolishi bilan belgilanadi.

Axborotlarni tashkil etuvchi va tarkatuvchi asosiy maydon - bu internet tarmog'i ekanligi hech kimga sir emas. Tabiiyki, yoshlar katta avlodga nisbatan internet tarmog'ining eng ko'p foydalanuvchi qatlamidir. Zamonaviy jamiyatga esa asosiy tarmoq xisoblangan ushbu vositadan voz kechish yoki uni umuman inkor etish mumkin emas.

Yoshlar turli reklamalar va ayniksa bir-birlariga bevosita ta'sir o'tkazish natijasida internet tarmog'idan berilayotgan kundalik axborotga katta ehtiyoj sezmoqdalar. Kutubxona va kitobxonlikka nisbatan bir necha marta arzon va qulay bo'lgan internet tarmog'i ular uchun, axborotlar bilan ishlashning eng yaxshi makoni sanaladi. Ammo davomiy axborotlar bilan ishlash oqibatida foydalanuvchi o'zi sezmaganda axborot hurujiga tushib qoladi sababi oddiy ya'ni axborot iste'molchisi bo'lgan har bir foydalanuvchiga axborot bilan ishlash ko'nikmasi maxsus shakllantirilmagan. Rivojlangan mamlakatlarda internet tarmog'iga maxsus yo'naltirilgan axborot vositalarini tarqatilsa hamda unda

berilayotgan ma'lumotlarning haqqoniyligini tekshirib borish uchun maxsus internet-provayder kompaniyalari hamda markazlar tashkil etilgan. Shu markazlar nafaqat davlat miqyosida balki ma'lum bir soha hamda ixtisosliklar doirasida maxsus ishlab chiqiladi. Internet tarmog'iga ketadigan ko'p axborot vositalari mashhur teleradiokompaniyalar yoki OAVnomi orqali tarqatiladi. Nega televideniye va gazeta-jurnallarda keng yoritish bo'lmagan turli ma'lumotlarni katta hajmdagi axborot sifatida internetda bemalol va istagancha talqin qilish mumkin. Shu sababli ham bugun, internet tarmog'ida BBS, CNN, TIMES kabi, internet saytlari hammabop bo'lib qolganligini e'tirof etish mumkin. Bu saytlarda mavjud axborotlar dunyoning barcha xalqlari tushunadigai asosiy tillarda deyarli har kuni har soat va har daqiqalarda tarqaladi yangilanib turadi.

Global axborot tizimi hisoblangan internet orqali tarqatilayotgan habarlar, ma'lumotlarni foydali tomonlari bilan birga zararli hatto o'ta xavfli ekanligini ham eslatib o'tish lozim. Bunga hozirgi demokratik tamoyillar ishidan kelib chiqib turli mamlakatlarda faoliyat olib borayotgan nodavlat, nohukumat hatto ayrim davlat matbuot nashrlari va OAV orqali tarqatilayotgan xabarlarni ham aytish mumkin. Shunday mas'uliyatsiz axborot vositalari tarqatgan, tarqatayotgan xabarlari bevosita va bilvosita, boshqa jamiyatlar, davlatlar, milliy birliklar, diniy e'tiqodiga, yosh hususyatlariga ko'ra yoki yoppasiga ijtimoiy barqarorlikni buzish, ijtimoiy, milliy guruxlarni bir-biriga qayrash, inqilobiy xarakatlarga chaqirish, yolg'ondakam, iqtisodiy inqirozlarni bashorat qilish, davlatlar o'rtasida yirik nifoqlar keltirib chikaruvchi soxta mafkuraviy xurujlardai iborat ekanligi ko'rinib qolmoqda.

Undan tashkari axborot tizimlari orqali uzoq muddatlarga mo'ljallangan boshqa halklarni manqurtlashtirishga olib boradigan ko'zga ko'rinmas uslublar va texnologiyalar ham qo'llanilmoqda.

Buni quyidagi jixatlarini aytib o'tish lozim:

-internetda va boshqa axborot vositalari orqali tarqatilayotgan xabarlar uchun hech kim yoki tashkilot yoki davlat javob bermasligi va bu hol so'z erkinligi, demokratiyada fikr erkinligi tamoyili bilan xaspo'shlanayotganligi;

-shundan foydalangani holda, bu tizim orqali bo'lar bo'lmas axborotlarni tarqalib ketayotganligi;

-xabarlar tizimida oddiy bir-birini ko'rolmaydigan shaxslarni raqiblarini mavh etishida, davlatlar va boshqa jamiyatlarni o'zaro tizimlarini mot etishgacha bo'lgan xolis bo'lmagan axborot xurujlari uslublaridan foydalanish;

- zarur axborotlar qatorida, jamiyat ma'naviyatiga, axloqiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan bema'ni manbalar, axborotlar, tasvirlar, filmlar, kliplar, kitoblar, matnlar, qo'shiqlar, ma'ruzalar va boshqalarni borligi;

- axborotlar tarkibini asosan, mutlaqo foydasi yo'q shunchaki vakti o'tkazishga qaratilgan lekin shu bilan birga hammani o'ziga jalb qiladigan uyinlar, ma'lumotlar borligi;

-kompyuterlarni boshqa zarur dasturlari alohida sotib olib qo'yishga mo'ljallangani holda, uning bazasida turli uyinlarni, korxonani o'zidayok, qo'yib chikarilishi, ularni internet tarmoqlari orqali targ'ib qilib tarqatilishi;

-internetda ta'lim tizimida foydalanayotgan darsliklar, o'quv qo'llanmalar, referat, kurs ishlarini tayyorlarini ko'chirib kelinayotgani oqibatida, talabani izlanishga ishtiyoqi pasayib ketayotganligi shu tufayli fikrlash qobiliyati susayishidek istiqbolsiz jarayon kechayotganligi;

- hali dunyoqarashi to'liq shakllanmagan yoshlar shuningdek o'z qat'iy fikri pozitsiyasiga ega bo'lmagan kishilarni o'z domiga tortib ketadigan diniy, mafkuraviy kuchga ega bo'lgan oqimlarni da'vatlarini borligi;

- diniy ekstrimistik, irqchilik, agressiv millatchilik, fashistik g'oyalarii targ'ib qilinayotganligi;

- ayrim firma va kompaniyalar o'zlarining sifatsiz ayni paytda zararli mahsulotlarini reklama qilishda ustalik bilan foydalanayotganligi;

- yirik siyosatchilar, taniqli kishilar, olimlar san'atkorlarni shaxsiy hayoti, maishiy turmush tarzi, oilasi, uning obro'sizlantiruvchi yoki soxta obro' keltiruvchi aksari bo'htondan iborat xabarlarini tarqalishi. Xususan ularni qanday ichki kiyim kiyishi, nechta jazmani borligi, qanday restoran yoki kafelarda ovqatlanishi, qanday taqinchoqlari borligi, qimorda qancha pul yutqizganligi,

necha marta uylanganligi yoki turmushga chiqqanligi, mashinanasini markasi, uni qancha pul turishi, it yoki mushugini laqabi qanday ekanligi kabi xomaki ma'lumotlar berilib intellektual saviyasi past kishilarni ongini shunday axborotlar bilan aylantirilayotganligi va hakazo.

Ulug' adib Abdulla Qaxxor "Adabiyotni kuchi atomdan kuchli, lekin uni o'tin yorishga sarflamaslik kerak" degan edi. Darhaqiqat, foyda kuchi shunchalik qudratli bo'lgan axborotlarini befoyda va zararli hatto havfli maqsadlarda foydalanilayotganligi achinarli hol.

Hind xalqining farzandi Maxatma Gandi axborotlarni to'g'ri va o'rinli talqin qilinishi, ba'zi xabar yoki g'oyalar jamiyatga notinchlik inqilobiy o'zgarishlarga olib kelishi haqida fikr yuritib, - "men uyimni havosini almashtirish, toza havo kirishi uchun derazamni ochaman, lekin havo to'fonga aylanib, uyimni ag'dar-to'ntar qilib yuborishini istamayman" degan edi.

Internetning kuniga 24 soat davomida to'xtovsiz ishlashi va uni to'liqligicha qo'lga olishning iloji yo'qligi ko'plab davlatlarda axborotlar bilan ishlash belgilangan ko'nikmalar shakllantiruvchi o'quv markazlar tashkil etilgan. Bizningcha universitet va talabalar turar joylarida internet markazlarining faoliyatini amaliy jihatdan rivojlantirishda O'quv markazlari tashkil etish lozim. Axborot xurujiga qarshi talabalarga biror-bir amaliy yordam ko'rsatadigan qo'llanma va kitoblar yetishmayapti. Talabalar internet axborot xurujiga qarshi o'zlarida hali fuqarolik pozitsiyasini to'liq shakllantirish imkoniyatiga ega emaslar. Mashhur iqtisodchi xalqaro Nobel mukofoti sohibi, professor F.Xayek o'z munozaralarida shunday deydi. "Haqiqat bir tomondan bizning zamonaviy fanimiz qonunlari asosida o'z isbotini topmaydi yoki konstruktiv metodologiyasi talabalariga ham asoslamaydi lekin shu bilan birgalikda bizda o'zimizning ko'plab hozirgi ilmiy taxminlarimiz ham oxir-oqibatda xato chiqib qolishi uchun ham asos mavjud. Agar har qanday ta'limot bizga katta yutuklar olib kelgan taqdirda ham, biz ishonmaylik, bu ilgari odimlash uchun jiddiy mazmun kasb etganda ham, mohiyatiga ko'ra, huddi avvalgilari singari anglashilmaganday bo'lib qolaveradi".

Zamonaviy "Ommaviy madaniyat" tushunchasi asosida madaniy mahsulotlarning standartlashuvi va iste'mol tovariga aylanishi, seriyalab chiqarilishi, OAV orqali tarqalishi, milliy va mintaqaviy chegaralardan oshib o'tib, kosmopolitik shakl va mazmun kasb etishi yotadi. U folklordan farqli o'laroq, milliy an'ana asosida emas, xalqaro moda va bozor talabi asosida rivojlanadi.

Bilimi va saviyasi o'rtamiyona bo'lgan keng ommaga mo'ljallangan madaniy mahsulotlar shaklan va mazmunan sodda, oson tushuniladigan bo'lishi talab etilar edi. Ana shu omillar ularni jo'n, sxematik andozalarga, qoliplarga mos tarzda sanoat usulida ishlab chiqarishda qo'l keldi. Masalan, Amerika kinofilmlarida "yaxshi" yigitlarning "yomon" yigitlarga qarshi kurashi va g'alabasini tasvirlash markaziy o'rni egallaydi.

Zamonaviy Ommaviy madaniyatni yana bir xususiyati to'g'risida shartli ravishda bunday deyish mumkin: madaniyatni o'zlashtirish "kitobiy shakl"dan ko'proq "vizual shakl"ga, ya'ni o'qib-o'rganishdan, aqliy mehnat qilishdan ko'ra ko'proq TV, kino, video, internet orqali ko'rishga, tomosha qilishga, dam olish bilan birlashtirishga o'tib ketdi. Bu juda muhim belgidir. Zero, bunda Ommaviy madaniyatnig, bir tomondan, aholining keng qatlamlarini o'z ta'siri ostida saqlash, ular ustidan hukmronlik qilish tez sur'atda tarqalishi qudrati aks etsa ikkinchi tomondan inson ongi tafakkuri yuksalishi uchun ahamiyati pastligi namoyon bo'ladi. Odamlar bo'sh vaqtini ko'proq TV ekrani qarshisida o'tkazadi.

Ba'zan kafe, klub yoki stadiona, konsert-shoulariga borib turadi. Lekin ular o'zaro kam muloqot qilib, bir-biridan va jamiyatdan tobora begonalashib borayotir. Kamayib ketgan jonli muloqot o'rinnini ko'proq internet yordamida amalga oshiriladigan virtual muloqot to'ldirmokda. Vizual Ommaviy madaniyat inson tafakkurini, fantaziyasini, tasavvurlarini, mavhum tushunchalarni qabul qilish, tahlil etish va eslab qolish qobiliyatini rivojlantirmaydi. Buni hozirgi ayrim yoshlarning kitob o'kimay quyganida, o'z fikrini tushunarli qilib yozma ifoda etolmasligida og'zaki nutqining g'alizligida ko'rish mumkin. Vizual madaniyat tayyor stereotip (andozaviy) fikr va g'oyalarni singdirib, inson dunyoqarashini,

ongini boyitmaydi, balki boshqaradi. Postmodernizm nazariyachilari F.Djeymisson, R.Bart, J.Batay, J.Bodriyyar, U.Eko va boshqalar vizual madaniyatning ushbu jihatlarini tashvish bilan qayd etib. u chinakam hayotiy reallikda emas, balki o'zi yaratgan sun'iy reallikda yashashini, "idora etiladigan omma"ni shakllantirishini, bu fenomenga nisbatan klassik uslubdagi tahlilni qo'llab, qadriyatlar nuqtai nazaridan baho berib bo'lmashligini ta'kidlaydi.

Rossiya universitetlarida 2009 yili talabalar orasida internet tarmog'ida boshqa "o'zingiz foydalanadigan asosiy axborot manbalarini ko'rsatib o'ting" degan mazmundagi so'rovnoma o'tkazilganda quyidagi ma'lumotlar olingan:

52,0% talaba kutubxonadan;

43,9% jurnaldan;

36,7% gazetalar;

43,9% televideniye va radiodan;

42,9% o'qituvchilardan

10,2% kursdoshlardan oladigan axborot deb javob bergan. Ko'rsatkichlarda ham talabalarning deyarli yarmi o'z bilimlarini kengaytirish uchun asosiy manbalarni ikkilamchi vositalardai olishi ma'lum bo'lmoqda.

Xullas, globallashuv jarayoni avj olgan bugungi kunda har qanday axborotni, qanday axborot vositasidan olinishidan qat'iy nazar axborotdan to'g'ri xulosa chiqargan holda uni qay maqsadda foydalanishni keng jamoatchilikka anglatish lozim hisoblanadi.

XULOSA

Bitiruv malakaviy ishi natijalari va ilmiy tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Jamiyatimiz o'ziga xos xususiyatlari va unga bog'liq tushunchalar yuqori darajada o'rganilgan. Shuningdek, ommaviy madaniyat, uning tarixi va buguni, yutuqlari va kamchiliklari turli ko'rinishda tadqiq etilgan. Ammo, ommaviy madaniyatning jamiyatimizga, xususan, xalqimiz hayotining qaysi sohalariga ko'proq ta'siri alohida holatda o'rganilmagan. Shundan kelib chiqib, zamonaviy G'arb sivilizatsiya erishgan yutuqlar bilan bir qatorda G'arb turmush tarzida g'urur-or, erkaklik sha'ni, ayollik iffati degan nozik tushunchalar yemirila boshlayotganligi, bunday holatlar "erkin hayot tarzi" sifatida OAV tomonidan targ'ib qilinayotganligi oqibatida xalqimiz orasida ushbu turmush tarzidan ta'sirlanish holatlari uchrayotganligi, bu esa inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solayotganligi bu mavzuni o'rganish qanchalar muhim ekanligini bildiradi.
2. Ijtimoiy fanlar tizimida "madaniyat" tushunchasi "ommaviy madaniyat" tushunchasi bilan bir qatorda istefoda etib kelinadi. U o'z ichiga kiyinish xususiyatlari, oilaviy hayot va nikoh marosimlari, mehnat faoliyati va diniy rusumlar, bo'sh vaqtni qanday o'tkazish kabilarni qamrab oladi. Unga yana odamlar tomonidan yaratilgan va muayyan qadriyat hisoblanadigan uy-ro'zg'or buyumlari, mehnat qurollari hamda zamonaviy texnik-maishiy uskunalarni kiritish mumkin.
3. Bugungi globallashuv sharoiti insonning iqtisodiy, siyosiy hayoti bilan bir qatorda uning ma'naviy turmush tarziga ham ta'sir o'tkazib qolmayapti.

Ma'naviy va xususiy darajada globallashuv insonni quruq iste'molchiga aylantirdi: baxt moddiy farovonlik bilan belgilanadi. Yashashdan maqsad maksimal darajada hayotdan lazzatlanishdangina iborat bo'ladi. Bu yerda ruhiy-ma'naviy qadriyatlarga, ezgulik, savob, birovga beg'araz yordam ko'rsatish kabi oliy tushunchalarga o'rin yo'q. Insonlar munosabatlari foyda va zarar qonunlari

asosida ishlaydi. Xizmat ko'rsatish tizimi keng rivojlanib, ko'ngilxushlikning ko'z ko'rib, quloq eshitmagan turlari yuzaga keladi. Ayniqsa, ayolning inson sifatida qadr-qimmatini juda tushib ketadi. OAVda ko'z-ko'z qilinadigan go'zal xonimlarga inson sifatida emas, balki mahsulot sifatida qarashadi.

4. G'arb madaniyatini sivilizatsiyalar cho'qqisiga chiqishida cherkov faoliyatini hayotning barcha sohalaridagi hukmronligiga chek qo'yish va buning asosida ratsional fikrlash tarzi shakllanishi muhim o'rin tutgan bo'lsa, g'arb kishisini diniy hayotdan butunlay uzoqlashishi bu madaniyatni ma'naviy axloqsizlik jariga sho'ng'ishiga sabab bo'lib xizmat qildi. Bu borada G'arb madaniyati uch bosqichga bo'lingan.

Birinchisi, Uyg'onish davri. Bu davrda insonning mohiyatini o'ziga xos tarzda talqin etib, uning yaratgan va borliqqa munosabati tubdan o'zgarishiga asos bo'lgan yangi gumanistik ideal yaratiladi. Aynan shu davrda yangicha dunyoqarashning bosh tamoyili - teotsentrizmdan antropotsentrizm sari borish harakati, tendensiyasi yaqqol namoyon bo'la boshlaydi. Bu - nasroniy din qadriyatlari asosida shakllangan G'arb ma'naviyatiga berilgan dastlabki qaqshatqich zarba edi.

Ikkinchisi, Islohatchilik davri. Bu davrda insonning e'tiqodi, yaratganga munosabati uning o'zigagina tegishli shaxsiy masalaga aylanadi va aynan shuning negizida individualizm asoslari shakllanib, g'arb kishisining faolligi va erkinligi uchun keng imkoniyatlar yaratiladi. Endilikda ko'plab odamlar hayotning ma'no-mazmunini e'tiqod bilangina bog'lamaydi, ular boshqa hayotiy maqsad, ehtiyoj va manfaatlar ham bo'lishi mumkinligini anglab yetadi. Bu esa g'arb kishisida hayotdan maqsad – ruhiy yuksaklik emas, moddiy farovonlikdan lazzatlanish, aqidasini shakllanishiga olib keldi.

Uchinchisi, "Ma'rifatparvarlik" davri. Bu davrda yashab ijod qilgan ayrim mutafakkirlar diniy e'tiqoddan mahrum bo'lgan, faqat dahriy kishilardan tashkil topgan jamiyatlar barpo etish mumkinligi to'g'risidagi qarashlarni ilgari suradi. Masalan, Ma'rifatparvarlik davrining g'oyaviy asoschilaridan biri P.Beyl fikricha, insonni e'tiqod emas, ilmgina yuksaltirishi mumkin. Mana shunday fikrlar bilan

kishilarning ongi yo‘g‘rilgan davrda insoniyatning ma’naviy hayotiga qattiq ta’sir qilgan harakatlar, ayniqsa, kommunizm va fashizm mafkurasi yuzaga keldi. Bu esa insoniyatning, xususan, shundoq ham yuqoridagi ikki davr natijasida diniy – axloqiy turmush tarzidan bir muncha uzoqlashgan g‘arb kishisining ruhiy-ma’naviy hayotida bo‘shliqni vujudga keltirdi.

Shunday qilib, G‘arb jamiyatida cherkov hukmronligi sustlashgan davrdan hozirgi vaqtgacha tabiiy va gumanitar fanlar sohasida erishilgan ulkan yutuqlar dinning mavqei pasayishi, e’tiqodning susayishiga jiddiy ta’sir qilganini inkor etmagan holda, diniy qadriyatlar yemirilishining asl ildizlari barcha tamaddunlar, ayniqsa, g‘arb davlatlari va xalqlari tarixida g‘oyat muhim o‘rin tutgan, yuqorida zikr etilgan uch inqilobiy davrdan izlansa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

5. Bugungi kunda ommaviy madaniyatining salbiy jihatlarini azaldan xalqimizning ma’naviy kamolotini ta’minlashga xizmat qilib kelgan vositalar – san’at, adabiyot va kiyinish madaniyatida ko‘rish mumkin. Misol uchun, odobni eng ko‘p targ‘ib qiluvchi hisoblangan adabiyotlarda hozirgi kunda axloqsizlik elementlarini uchrashi xalqimizga xos bo‘lgan sharm-hayo, ibo, nomus, iffat, sadoqat va vafo kabi muqaddas tushunchalarga darz yetkazmoqda.

Bitiruv malakaviy ishda yuqoridagi fikrlarini umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

- * Ommaviy madaniyatning jamiyatimizga ta’sir turlicha namoyon bo‘lmoqda;
- * Ommaviy madaniyatning ta’sirini kishilarning kiyinish tarzida yaqqol ko‘rish mumkin;
- * Shuningdek, bu ta’sirning jamiyatimiz a’zolari nishonlaydigan turli urf-odatlar (to‘y marosimlari, mavjud bayramlarni nishonlash va boshqalar) da uchratish mumkin;

Ommaviy madaniyatning jamiyatimizga ta’siri sezilarli darajada ekanligi haqida o‘ylaganimizda, tabiiyki, har birimiz tashvishga tushamiz. Shunda, yoshlar ta’lim-tarbiyasi borasidagi ishlarimizning samaradorligi qanchalar muhim ahamiyatga ega ekanligini tushunib yetamiz. Shu bilan birga shukr qilamizki, xalqimiz orasida

sogʻlom eʼtiqodli, yuksak axloqli kishilar hanuz koʻpchilikni tashkil qilib kelmoqda.

Haqiqatdan ham yuksak axloq, avvalo, har bir insonning odobini, xalqning orzu-umidlari, niyat-intilishlarini namoyan qiladi. Shuning uchun ezgulikni qadrlab, ragʻbatlantirib, maʼnaviy-axloqiy qadriyatlarimizning asrab, rivojlantirib, adashganlarning toʻgʻri yoʻlga solib mustaqilligimizni yanada mustahkamlab borish barchamizning asosiy vazifamizdir.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, ommaviy madaniyatdan bizning milliy xususiyatlarimizga zid kelmaydigan, umuminsoniy sifatlarga ega boʻlgan ilgʻor tajribalarni tanqidiy tahlil asosida olsakgina, Sharq va Gʻarb uygʻunligini ratsional asosga qurishga muvaffaq boʻlamiz.

Tavsiyalar

Yuqoridagi bitiruv malakaviy ishining nazariy xulosalarini umumlashtirgan holda quyidagi tavsiyalarni havola qilamiz:

1. Tinimsiz axborot oqimi vujudga keltirayotgan global muhitda milliy qadriyatlar, oʻziga xoslikni ifodalovchi anʼanalar zavol topishini oldini olish maqsadida axborot xavfsizligini joriy qilish;
2. Bunda, internet tarmogʻi hamda sunʼiy yoʻldosh kanallari orqali namoyish etilayotgan, yurtdoshlarimizning dunyoqarashini oʻsishiga xizmat qiladigan dasturlarni berib borish bilan birga kishilarda jahon axborot tarmogʻidan nimani olish mumkin, nimani olish mumkin emas, degan xarakterning shakllanishini taʼminlash;
3. Televideniye, radio va turli koʻngilochar tadbirlarda kishilarning milliy va diniy qadriyatlarimizga toʻgʻri kelmaydigan liboslarda chiqishlarini oldini olish;
4. Matbuot va badiiy asarlarda yoshlarimizni yengil-yelpi hayot kechirishga va sayoz dunyoqarashga ega qilib qoʻyadigan qissa va hikoyalar chop etilishiga qarshi bir necha ziyolilar guruhini jalb qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. –T.:O'zbekiston, 2012.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.:Ma'naviyat, 2008.22-46-111-112-b.
3. Karimov I.A. Tanlangan asarlar to'plami. T.1-19. T.: O'zbekiston, 1996-2009 y123-b.
4. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13 T.:O'zbekiston, 2005.24-b
5. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat. T.14. – T.:O'zbekiston, 2006 72-73-b.
6. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning me'zoni va maqsadidir. T.15. T.:O'zbekiston, 2007 2-3-b.
7. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. T.16. T.:O'zbekiston, 2008 45-46-b
8. Karimov I.A. Eng asosiy mezon - hayot xaqiqatini aks etgirish, - T.: O'zbekiston, 2009 31-32-b.
9. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.:O'zbekiston, 1999 56-57-b
10. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. –T.: O'zbekiston. 2010 73-74-b
11. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.:O'zbekiston, 2012 94-95-b
12. Abdullayev.M.Madaniyatshunoslik asoslari. Farg'ona 1997 yil 41-42-b
13. Axmedova M. Falsafa. T.2006.259-260-b
14. Boboyev X va boshqalar. Madaniyatshunoslik.-T.; 2001 63-64-b

15. Mavkulov A. Madaniyat va tafakkur o'zgarishlari. "Toshkent" 2004 64-65-b
16. Madaniyat va ma'naviyat muammolari. -T.; "Meros" 1994 6-7-b.
17. Soatov G'. Madaniyatshunoslik asoslari. T.2008 5-8-58-69-b
18. Tulenov J. G'afurov Z. Falsafa. T.1997 268-274-b
19. Shermuxammedov S.A. Ochilidiev. Madaniyat va sivilizasiya. Quvasoy. 1999 yil 17-b
20. Erkayev A. Ma'naviyat va taraqqiyot. T.2005 58-59-b
21. Erkayev A. Mustaqillik va madaniy meros «Muloqot», 1996 yil, 1-son.
22. Erkayev A. Ma'naviyat-millat nishoni. Toshkent, «Ma'naviyat», 1997-yil. 78-79-b
23. Erkayev A. Milliy mafkura va ma'naviyat. Toshkent «Ma'naviyat» 2002 yil 31-32-b
24. Erkayev A. Ma'naviyat va ommaviy madaniyat. Qarshi DU Axborotnomasi. 2013 yil, №3,4. 60-69-b 2014 yil, №1. 30-49-b
25. Qoraboyev U.. XX1 asr madaniyat asri. «Muloqot» jurnali №6, 1999 yil. 15-18 betlar 46-62-b.
26. Hamdamova M. Ma'naviyat asoslari. T.2008 31-32-33-b
27. www.ziyonet.uz
28. www.ref.uz
29. www.kasu.uz
30. www.google.uz

Moddiy madaniyat – bu eng avvalo mehnat qurollari, transport aloqa vositalari, uy-joylar, kiyim-kechaklar, oziq-ovqatlar, har xil buyumlar, xullas insoniyatning moddiy ehtiyojlarini qondiruvchi barcha narsalar hamda kishilarning ishlab chiqarish tajribalari, ko‘nikmalari va mahoratlaridir.



Ma'naviy madaniyat – kishilarning bilimlari, tajribalari, urf-odatlar, xulq-atvorlari, fan, adabiyot, san'at, falsafa, huquq, ilmiy dunyoqarash, diniy e'tiqodlari, ta'lim-tarbiya, matbuot, xullas, insoniyatning ma'naviy ehtiyojlarini qondiruvchi barcha ma'naviy boyliklar majmuidir.

“Ommaviy madaniyat”
millat ma'naviyati
va madaniyati
kushandasi

Tabiiyki, **“ommaviy madaniyat”** degan niqob ostida axloqiy buzuvchilik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylar o'rttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'analarini va qadriyatlarini, turmush tarzining ma'naviy negiziga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli taxdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi.

Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda va ko'pchilik butun jahonda bala – qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish naqadar muhim ekanini anglab olmoqda.”

Madaniyat - bu insoniyatning shakllanishida, turli tamaddunlarni yuzaga keltirishida muhim mexanizm sanalishi bilan birga odamlarning o'zaro aloqa almashish, bir-biriga yordam qo'lini uzatish, suyash kabi odamiylik amallarini ham tasniflaydi. Bu tushuncha arabcha "**madina**" so'zidan olingan bo'lib, sodda qilib aytganda "**shahar(lashish)**" degan ma'noni anglatadi. Albatta, ushbu so'z atamaga aylangan davrda shaharlar o'zining ijtimoiy-siyosiy va moliyaviy jihatdan barqarorligi bilan yuksak darajaga ko'tarilib ulgurgandi. Elu yurtning koriga yaraydigan, uni boshqarib, xalqaro munosabatlarga kirishadigan rahbarlar, olimu fuzalo, ahli ulamo, shoiru nosirlar yashagan shaharlar shu bois ham "madaniyat" so'ziga zamin bo'lgandir. Lotin tilidan olingan "**culture**" ("**kultura**") so'zi yerga ishlov berish, parvarishlash degan ma'nolarni anglatadi. Unda ham mohiyatan yetuklikka erishish, komillik kasb etish tarbiyadan, odob-axloqdan boshlanadi, degan uqtirish mujassam.

Emo madaniyat

Emo inglizchadan olingan so'z bo'lib emotional - hayajonli, hayajonlantiruvchi kabi ma'nolarni anglatadi, Bu "ommaviy madaniyat"ning bir turi bo'lib, u yoshlar orasida keng tarqalib bormoqda. Bu madaniyat vakillarining asosiy qonuni inson doimo o'zini baxtli his etishi, tashqi olamni yani jamiyatni unutgan holda o'z ichki dunyosi bilan yashashi lozim.